

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH (O'ZBEK
FILOLOGIYASI) FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“O'ZBEK LEKSIKOLOGIYASI”
moduli bo'yicha
MA`RUZALAR MATNI**

Tuzuvchi: D.S. Ne`matova

Andijon– 2017

1-modul: Leksikologiya kursiga kirish

Reja:

1. Tilning lugʻat tarkibi haqida ma'lumot.
2. Leksikologiyaning tarmoqlari va qismlari.
3. Leksikologiyaning oʻrganish ob'ekti, maqsad va vazifalari.

Tayanch iboralar: leksikologiya, leksika, lugʻat tarkibi, lugʻaviy birlik, leksik birlik, frazeologik birlik, umumiy leksikologiya, xususiy leksikologiya, qiyosiy leksikologiya, tarixiy leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, onomasiologiya, onomastika.

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.
4. Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.
5. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.

Leksikologiya grekcha lehikos – soʻz va logos – ta'limot soʻzlaridan olingan boʻlib, tilshunoslikning tilning lugʻat tarkibini, soʻz boyligini oʻrganuvchi, tadqiq etuvchi alohida bir sohasidir.

Tilning lugʻat tarkibi muayyan tilda mavjud boʻlgan soʻz va iboralar majmuidan iboratdir. Soʻz va iboralar birgalikda tilning lugʻaviy birliklarini tashkil etadi. Soʻz – leksik birlik, ibora esa frazeologik birlik deb yuritiladi.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibi keng ma'noda adabiy tildagi soʻzlar bilan bir qatorda shevalar hamda kasb-hunarga, shuningdek, ma'lum ijtimoiy guruhga oid soʻzlarni ham oʻz ichiga qamrab oladi. Kishi ismlari, laqablar, taxalluslar (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), yulduz va sayyoralar nomlari (astroponimlar), hayvonlarga berilgan maxsus nomlar (zoonimlar) kabi atoqli otlar ham tilning lugʻat tarkibiga kiradi. Lugʻat tarkibi tilning boyligini oʻzida aks ettiradi. Qaysi til soʻzga boy boʻlsa, oʻsha til shunchalik taraqqiy etgan hisoblanadi.

Tilning lugʻat tarkibi doimo oʻsishda, oʻzgarishda boʻladi. Bunda oʻtmishda ishlatilgan bir qancha soʻzlarning eskirib iste'moldan chiqishi, avvallari faol qoʻllangan soʻzlarning nafaol qatlamga oʻtishi, ilgarilari kam ishlatilgan soʻzlarning faollashishi, soʻz ma'nosining kengayishi va torayishi, soʻzlarning koʻchma ma'noda qoʻllanishi kabi holatlar kuzatiladi. Jamiyat taraqqiy etib borishi natijasida tilning lugʻat tarkibi ikki omil: ichki va tashqi manbalar asosida boyib boradi. Ichki omil deyilganda oʻzbek tilining oʻz imkoniyatlari, qonun-qoidalari asosida yangi soʻzlar hosil qilinishi, yasalishi hamda sheva va lahjalardan adabiy tilga soʻz qabul qilinishi tushuniladi. Lugʻat tarkibi tashqi manba – boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish orqali ham boyiydi. Tilning lugʻat tarkibi ma'nosida leksika atamasi ham qoʻllaniladi. Darhaqiqat, leksika – tildagi soʻzlarning yigʻindisi, majmuidir. Leksika atamasi adabiy tilning lugʻat tarkibi ma'nosida qoʻllanishi bilan bir qatorda biror sheva yoki lahjaning, ma'lum bir kasb-hunar, sohaning lugʻat tarkibini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan, oʻzbek shevalari leksikasi, oʻgʻuz lahjasi leksikasi.

Leksikologiyaning tarmoqlari va qismlari. Leksikologiyaning bir necha tarmoqlari bor: 1) umumiy leksikologiya, 2) xususiy leksikologiya, 3) qiyosiy leksikologiya, 4) tarixiy leksikologiya, 5) hozirgi leksikologiya.

Umumiy leksikologiya barcha tillar leksikasiga xos boʻlgan umumiy qonuniyatlar, hodisalarni oʻrganish bilan shugʻullanadi. Xususiy leksikologiyada muayyan bir tilning soʻz boyligi oʻrganiladi. Qiyosiy leksikologiyada bir necha qarindosh tillar leksikasi bir-biriga chogʻishtirish, qiyoslash asosida tekshiriladi, ular oʻrtasidagi bir xillik va tafovutlar ochib

beriladi. Tarixiy leksikologiyada aniq bir tilning o'tmishdagi, ma'lum bir davrdagi leksikasi tadqiq etiladi. Hozirgi leksikologiya biror til leksikasining hozirgi davrdagi holatini o'rganadi. Leksikologiya qayd etilgan bu tarmoqlari o'zaro mustahkam bog'langandir. Ular bir-birining materialiga tayanib ish ko'radi.

Leksikologiya bir necha qismlardan iborat: 1) semasiologiya, 2) etimologiya, 3) onomasiologiya, 4) onomastika.

Semasiologiyada so'z va uning ma'nosi, leksik ma'no tiplari, semema va uning tarkibi, leksik ma'no taraqqiyoti, leksik ma'noning miqdoriga ko'ra tiplari, so'zlarning ma'noviy munosabatiga ko'ra turlari, so'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari o'rganiladi. Etimologiya so'zlarning kelib chiqishi masalalari bilan shug'ullanadi. Onomasiologiya narsa va hodisalarga nom berish jarayonini o'rganadi. Onomastika atoqli otlarni o'rganuvchi, tadqiq etuvchi alohida bir sohadir. Uning antroponimika (kishi ismlarini ilmiy jihatdan o'rganadi), toponimika (joy nomlarini o'rganadi), etnonimika (urug', qabila, qavm, millat nomlarini o'rganadi), kosmonimika (osmon jismlari – yulduzlar, sayyoralar, yulduzlar turkumlari nomlarini o'rganadi), zoonimika (qush va hayvonlar uchun maxsus qo'yilgan laqab-nomlarni o'rganadi), ktematonimika (ma'naviy, madaniyat obidalarining, ilm-fan, texnikaga hamda badiiy adabiyotga oid asarlarning nomlarini o'rganadi) singari tarmoqlari bor.

Leksikologiya o'rganish ob'ekti, maqsad va vazifalari. Leksikologiya oboekti tilning luat boyligidir. Bu boyluk tilshunoslikda leksika deb ataladi, u muayyan tildagi barcha shzlarni va shu shzlar bolanishidan tarkib topgan khchma maonoli o'urilmalarni (iboralarni) hz ichiga oladi.

Leksikologiya predmeti – luu boyligining tuzilishi va sistemaviy xususiyatlarini, tarao'o'iyot o'onuniyatlarini, tilning bosho'a satxlari bilan aloo'asini tado'io' o'ilishdir.

Leksikologiya vazifalari: a) biror til luat boylagidagi eskirish va yangilanish jarayolarini, bu jarayotlarda lisoniy va nolisoniy omillarning ishtirokini hrganish; b) luaviy birliklarning vazifaviy – maonoviy tavsifini berish shzlarning maono guru'larini anio'lash, yangi va zamonaviy o'atamlarni tado'io' etish; s) talabalarni leksikaga oid nazariy bilimlar bilan o'urollantirish, leksik taxlil namunalarini hrgatish.

Savol va topshiriqlar.

1. Leksikologiya deb nimaga aytiladi?
2. Tilning lug'at tarkibi deganda nimani tushunasiz?
3. Tilning lug'at tarkibi qanday manbalar asosida boyiydi?
4. Leksika nima? Leksika atamasining qo'llanilishiga izoh bering.
5. Leksikologiya qanday tarmoqlarini bilasiz?
6. Leksikologiya necha qismdan iborat?
7. Semasiologiyada qanday masalalar o'rganiladi?
8. Etimologiya nima?
9. Onomasiologiya nimani o'rgatadi?
10. Leksikologiya asosiy maqsad va vazifalariga nimalar kiradi? Bu haqda bilganlaringizni so'zlab bering.

2-modul:Leksemaning semantik tarkibi.

Reja:

1. So'zning semantik tarkibi haqida umumiy ma'lumot.
2. Leksik ma'no turlari.
3. Qo'shimcha ottenka. So'zlarda hissiy buyoq va uslubiy belgining ifodalanishi.
4. Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar

Tayanch iboralar: leksik ma'no, leksik ma'no va tushuncha, bosh ma'no va hosila ma'no, to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, nominativ ma'no va majoziy ma'no, erkin ma'no va bog'li

ma'no, etimologik leksik ma'no, qo'shimcha ottenka, hissiy bo'yoq, uslubiy belgi.

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.
4. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.
6. www.ziyounet.uz.

So'zning semantik tarkibi shu so'zga xos bo'lgan ikki hodisani: leksik ma'no va qo'shimcha ottenkani o'z ichiga oladi. So'zning semantik tarkibiga aloqador bo'lgan mana shu hodisalarni o'rganuvchi soha semasiologiya deyiladi.

Ma'lumki, tildagi barcha so'zlar muayyan bir ma'noga ega bo'ladi. Lekin ular ob'ektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, harakat kabilarni bildirishi (tushuncha ifodalashi) va bunday xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Xuddi mana shu nuqtai nazardan so'zlar ikki guruhga: 1) tushuncha ifodalaydigan so'zlar va 2) tushuncha ifodalamaydigan so'zlarga bo'linadi. Tushuncha ifodalash – faqat mustaqil so'zlarga (olmosh bundan mustasno) xos xususiyatdir. Masalan, paxta, suv, kitob, oq, qizil, tekis, tez, sekin, o'ylamoq, yugurmoq, ushlamoq so'zlari ma'lum narsa, belgi, harakatni bildiradi, shu narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani ifodalaydi. Bu xususiyat shu so'zlarning ma'nosi hisoblanadi.

Mustaqil so'z turkumlaridan boshqa turkumlarga oid so'zlar, chunonchi, yordamchi so'zlar (bilan, uchun, va, hamda, agar, hatto, basharti kabilar), undovlar (eh, ehe, oh, voh, uf, ey, voy singarilar), taqlid so'zlar (taq, gup, ship, lip-lip, yilt-yilt, dup-dup, duk-duk va boshqalar), modal so'zlar (albatta, darvoqe, ehtimol, shubhasiz, darhaqiqat kabilar) tushuncha ifodalamaydi. Chunki bu so'zlar ob'ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni atamaydi. Shu bois ularda tushuncha ifodalash xususiyati yo'q.

Demak, aytilganlardan anglashiladiki, faqat tushuncha ifodalaydigan so'zlarga leksik ma'noga ega bo'ladi. Tildagi so'zlarning asosiy qismini ana shu tipdagi so'zlar tashkil etadi.

Leksik ma'no va uning turlari. So'zning ob'ektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat va shu kabilar haqida ma'lumot beruvchi mazmuni leksik ma'no deyiladi. Masalan, olma, o'rik, tosh, kitob, daftar, qo'l, ruchka, qalam so'zlari predmet-narsalarning ma'lum bir turini; sho'r, achchiq, nordon, katta, kichik, chuqur so'zlari ma'lum bir belgini; urmoq, chopmoq, ushlamoq, ishlamoq, o'ynamoq, sakramoq so'zlari ma'lum bir harakatni; uch, besh, o'n, yigirma, ellik, yuz, ming so'zlari ma'lum miqdorni bildiradi, shular haqida ma'lumot beradi. Bular mazkur so'zlarning leksik ma'nosi hisoblanadi.

Leksik ma'noli so'zlar narsa, belgi, harakat kabilarning aynan o'zini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi. Tushuncha esa bu ob'ektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, harakatning kishi ongidagi umumiy in'ikosidir. Tushuncha bir turdagi narsa-hodisalarga xos bo'lgan belgilarni umumlashtiradi. Masalan, daraxt, tog', tosh haqidagi tushuncha barcha tog', tosh va daraxtlarga xos umumiy belgilarni birlashtiradi. Darhaqiqat, borliqda daraxtning turi juda ko'p, uning miqdori behisob. Daraxt so'zi shulardan aniq bittasini atamaydi, balki shu predmet haqidagi umumiy tushunchani ifodalaydi.

Leksik ma'no va tushuncha o'zaro uzviy bog'liqdir. Har ikkisi so'zning semantik tarkibidagi asosiy hodisalar sanaladi. Ammo leksik ma'no va tushuncha teng hodisalar emas. Leksik ma'no tilga oid hodisa, tushuncha esa tafakkurga xos hodisadir.

Leksik ma'noning bir qancha turlari bor. Bular lingvistik adabiyotlarda bosh ma'no va yasama (yoki hosila) ma'no, to'g'ri ma'no va ko'chma ma'no, nominativ (nomlovchi) ma'no va majoziy ma'no, erkin ma'no va bog'li ma'no, asos ma'no va yasama ma'no, genetik ma'no va hosila ma'no, o'zak ma'no va yasama ma'no, asos ma'no va tobe ma'no, etimologik ma'no singari

tiplarga ajratilib talqin etiladi. Bu leksik ma'noga turlicha, har xil nuqtai nazardan yondashilganligini ko'rsatadi.

Bosh ma'no va yasama (hosila) ma'no. So'zning birlamchi, dastlabki, asosiy ma'nosi bosh ma'no deyiladi. Boshqacha qilib aytganda u yoki bu leksik ma'noning vujudga kelishi, o'sib chiqishi uchun asos bo'ladigan ma'no bosh ma'nodir. Bosh ma'no taraqqiyoti asosida hosil bo'lgan ma'no yasama ma'no deb yuritiladi. Masalan, ochiq suzsining bosh ma'nosi "berklanmagan" demakdir: ochiq deraza, ochiq darvoza. Eshik va darichalar ochiq bo'lsam ham, uyda biron ko'rinmadi (A.Qodiriy). Ochiq suzsining mana shu bosh ma'nosi ta'sirida yuzaga kelgan: 1) "aniq, ravshan, yashirmay" (ochiq bajarmoq, ochiq aytmoq, ochiq so'zlamoq. Elmurod ko'nglidagini ochiq aytib qo'ya qoldi – P.Tursun); 2) "xushfe'l, xushmuomala" (ochiq qiz, ochiq odam. U ichi kirsiz, serkulgi, ochiqqina bir yigit edi – A.Qodiriy) ma'nolari yasama (hosila) ma'nolardir.

To'g'ri ma'no va ko'chma ma'no. Leksik ma'nolarning bu ikki turi yuqorida qayd etilgan bosh ma'no va yasama ma'nolarga o'xshash. Darhaqiqat, suzning bosh ma'nosi odatda to'g'ri ma'no deb, yasama ma'no esa ko'chgan ma'no deb qaraladi. Masalan ko'z so'zining bosh ma'nosi uning odam a'zolaridan birining nomini – ko'rish organini ifoda etishidir. Bu ayni vaqtda to'g'ri ma'no hamdir (Bobomning ko'zi hali yaxshi ko'radi). Ko'z suzsining derazaning ko'zi, buloqning ko'zi, yog'ochning ko'zi, uzukning ko'zi, xurjunning ko'zi birikmalaridagi ma'nolari yasama ma'nolar, shuning bilan bir qatorda ko'chma ma'nolardir. Shuningdek, burun, quloq, tish, og'iz so'zari odamning burni, odamning qulog'i, odamning tishi, odamning og'zi bog'lanishlarida bosh va to'g'ri ma'noda, choynakning burni, qozonning qulog'i, arraning tishi, g'orning og'zi birikmalarida esa yasama va ko'chma ma'noda ishlatilgan.

Nominativ (nomlovchi) ma'no va majoziy ma'no. Ob'ektiv borliqdagi bevosita tushuncha bilan bog'lanuvchi narsa – hodisa, belgi, harakatni ifodalovchi, uning nomi bo'lib xizmat qiluvchi leksik ma'no nominativ (nomlovchi) ma'no deyiladi. Nominativ ma'no voqelik bilan bevosita bog'lanadi. Masalan, gul, til, kalit, qizarmoq, terlamoq so'zarining bosh ma'nolari nominativ ma'nolardir. Majoziy ma'no narsa, belgi, harakat bilan bevosita bog'lanmaydi. U nominativ ma'no orqali ularga aloqador sanaladi. Chunonchi, gul suzsining nominativ ma'nosi o'simlik turlaridan birining nomini anglatib kelishidir. Shu suz yigitlarning guli birikmasida "noyob", "sara" ma'nosini anglatadi. Bu – majoziy ma'no sanaladi. Gul – o'simlik nomi sifatida bevosita voqelik bilan bog'langan. Majoziy ma'noda esa voqelik bilan suzning nominativ ma'nosi orqali bog'lanib kelgan. Til suzsi odamning tili birikmasida "og'izda joylashgan va ta'm – maza bilishga xizmat qiladigan a'zo" ma'nosini – nominativ ma'noni anglatadi, dehqonchilikning tilini bilmoq, mashinaning tilini bilmoq bog'lanishlarida "nozik tomon", "sir" ma'nosini – majoziy ma'noni bildiradi.

Erkin ma'no va bog'li ma'no. Nutqda reallashish holatiga ko'ra leksik ma'no ikki turga: erkin ma'no va bog'li ma'noga bo'linadi. Professor A.Hojievning ta'kidlashicha, erkin ma'no narsa, belgi, harakat bilan bevosita bog'lanadigan ma'no bo'lib, uning reallashuvi ma'lum kontekstga, so'z qurshoviga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, o'yin so'zining raqs ma'nosi, chekmoq so'zining ichga tortmoq ma'nosi, yugurmoq fe'lining chopmoq ma'nosi, chap so'zining o'ngning aksi ma'nosi erkin ma'no hisoblanadi. Bu ma'nolar hech qanday qo'shimcha vositaga bog'liq bo'lmagan holda reallasha oladi.

Bog'li ma'no ma'lum so'z yoki so'zlar qurshovidagina reallashadi. Bunday ma'noning yuzaga chiqishi uchun ma'lum so'z shu bog'liq ma'noni reallashtiradigan so'z yoki so'zlar bilangina qo'llanadi. Masalan, chekmoq fe'li "boshidan o'tkazmoq" ma'nosini anglatishi uchun g'am, alam, tashvish, ozor so'zlari bilan qo'llanishi lozim. Bu so'zlarsiz chekmoq fe'lining yuqoridagi ma'nosi nutqda namoyon bo'lmaydi. Shu bois ushbu suzning ma'nosi bog'li ma'no sanaladi.

Qo'shimcha ottenka. So'zning semantik tarkibida leksik ma'nodan tashqari qo'shimcha ottenka ham mavjud bo'ladi. Qo'shimcha ottenka deyilganda hissiy bo'yoq va uslubiy belgi tushuniladi. Hissiy buyoq leksik ma'noga qo'shimcha tarzda sub'ektning turli hissiy munosabatlarini (hissiyatlarini, kayfiyatini) ifodalaydi. Hissiy bo'yoq ikki xil: 1) ijobiy, 2) salbiy bo'lishi mumkin. Chunonchi, yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol so'zari leksik ma'no anglatishi jihatidan bir

xil, hissiy bo'yoqqa ko'ra esa farqli. Bulardan aft, bashara, turq - salbiy hissiy bo'yoqni, chehra, jamol – ijobiy hissiy bo'yoqni anglatadi. Jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq so'zarida jilmaymoq sub'ektning ma'lum darajada ijobiy munosabatini, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq esa salbiy his-tuyg'uni ifodalaydi. Indamas, pismiqlik, ming'aymas sinonimik qatorida pismiqlik, ming'aymas so'zlari salbiy ottentka belgisiga ega. Novcha va naynov so'zarida naynov so'zi salbiy munosabatni bildiradi. Novcha so'zi esa hech qanday hissiy bo'yoqqa ega emas. Demak, so'zning semantik tarkibida hissiy bo'yoq bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin.

Uslubiy belgi so'zning biror nutq uslubiga xoslanganligini ko'rsatadi. Masalan, ozod va hur, ovoz va nido so'zlarida hur hamda nido so'zari badiiy uslubga xoslanganligi bilan ajralib turadi. Lolagun, ishvanov, dilband, jilvakor, sanam, farah, yovqur, gulgun, bashar, sarafroz, nigoron, tug'yon, yanglig', mohtob so'zlari ham badiiy uslubga xos so'zar hisoblanadi. Chiroyli va ketvorgan, pul va mullajiring, chidam va to'zim, ofarin, o'lmang, yashang so'zlari qatorida ketvorgan, mullajiring, to'zim, o'lmang, yashang so'zari oddiy so'zlashuv uslubiga xosdir. Uslubiy belgi semantik tarkibda albatta bo'lishi shart emas. Qayd etgan yuqoridagi misollarimizda chiroyli, pul, chidam, ofarin so'zlarining biror uslubga xoslik belgisi yo'q.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, so'zning semantik tarkibi leksik ma'no va qo'shimcha ottentkadan tashkil topadi. Leksik ma'no turli nuqtai nazardan bir necha tiplarga ajratilib o'rganiladi. So'z ma'nolarini chuqur o'rganish uning semantik qurilishini tasavvur qilish imkonini beradi.

Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar. So'zlar bir ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Bir ma'noli so'zlar monosemiya, ko'p ma'noli so'zlar polisemiya deb yuritiladi.

Faqat bitta leksik ma'noni ifodalovchi so'zlar bir ma'noli so'zlar (monosemiya) deyiladi: shahar, qishloq, poytaxt, mahalla, vazir, askiya, din, jilg'a, zovur, kechuv, kitob, daftar, traktor kabi. Ko'pincha ilmiy atamalar bir ma'noli bo'ladi: tuyuq, ruboiy, peyzaj, misra, g'azal, masnaviy, qofiya (adabiyotshunoslikda), kelishik, metateza, urg'u, fonema, sifatdosh, ravishdosh, kesim, to'ldiruvchi (tilshunoslikda), oqsil, azot, vodorod, kaltsiy, xlor (ximiya), kompas, meridian, masshtab, xarita, ekvator (geografiya), maxraj, musbat, manfiy, surat, kub, sinus, kosinus, kvadrat (matematikada), jism, energiya, magnit, bug'lanish (fizikada) singari.

Ikki yoki undan ortiq ma'noni ifodalovchi so'zlar ko'p ma'noli so'zlar (polisemiya) deb ataladi. Ko'p ma'noli so'zlar deyarli barcha so'z turkumlarida uchraydi. Ularga er, ko'z, bosh, yo'l, dunyo, kuch (otlar), oq, qora, baland, past, katta, kichik, o'tkir (sifatlar), ko'tarmoq, o'chirmoq, bo'lmoq, olmoq, ajratmoq (fe'llar) so'zlarini kiritish mumkin.

Polisemiya ikki yo'l bilan yuzaga keladi: 1. So'zning yangi ma'nolar kasb etishi natijasida. 2. Ko'p ma'noli so'zdan yoki ko'p ma'noli affiks vositasida so'z yasalishi natijasida.

Birinci yo'l – so'zning yangi ma'nolar kasb etishi asosiy va etakchi yo'l hisoblanadi. Bu yo'l vositasida tilimizda juda ko'plab polisemem so'zlar hosil qilingan. Shu yo'l asosida yuzaga kelgan ko'p ma'noli so'zlarga er, til, ko'z, gul, qalin, katta, o'chirmoq, termok, ko'tarmoq, olmoq kabi so'zlar misol bo'la oladi. Bu so'zlar 4 tadan tortib 20 tagacha ma'no ifoda etadi. Misol tariqasida qalin so'zining quyidagi gaplardagi ma'nolarini ko'rsatish mumkin: Qalin ko'rpacha ustida savol – javobga quloq solib o'tirdi (M.Ismoilov). Quyosh sekin-asta ko'tarilib, qalin shoxlar orasidan mo'ralay boshladi (I.Rahim). Jinchiroq ham ko'rinmaydi, uy ichi qalin tutun (Oybek). Bozor kuni bo'lganidan rastalarda odam qalin (Oybek). Nizomjonning eng qalin oshnasi Karimjon ham frontga ketdi (S.Ahmad). Misollarimizda qalin so'zi "serpaxta, issiq", "bir-biriga yaqin, zich joylashgan", "quyuq, zich", "ko'p, mo'l", "qadrdon, yaqin, jonajon" ma'nolarini ifodalamoqda. Qalin so'zining yuqoridagi ma'nolariga e'tibor berilsa, ular o'rtasida aloqa (bog'lanish) borligini yaqqol sezish mumkin. Bu shu ma'nolarning biri boshqasidan kelib chiqqanini ko'rsatadi.

Polisemem so'zlarning hosil bo'lishida ikkinchi yo'lning ham alohida o'rni bor. Bunda ko'p ma'nolilik yasama so'zlar vositasida yuzaga keladi. Agar so'z (o'zak) ko'p ma'noli bo'lsa, undan yasalgan yasama so'zlar ham ko'p ma'noni ifoda qiladi.

Polisemem so'z baland so'zidan –la qo'shimchasi orqali fe'l yasalganda, yasama so'z

(balandlamoq) ham ko'p ma'noga ega bo'ladi: Ko'tarma ko'zga ko'rinib, suv balandlab bordi (I.Rahim). Hamsuhbatim gapini shivirlab boshlasa ham, bir zumda ovozi balandlab ketdi ("Mushtum"dan). Narx-navo ancha balandlab qoldi (So'zlashuvdan). Keltirilgan misollarda balandlamoq so'zi "yuqorilashmoq", "kuchaymoq", "ortmoq, qimmatlashmoq" ma'nolarini ifoda etmoqda.

Polisemantik so'zlarning bir guruhi yasovchi qo'shimchalarning ko'p ma'noliligi asosida hosil bo'lgan. Masalan, yog'li yasalmasi: 1) "yog' yuqli" va 2) "seryog'" ma'nolarini anglatadi. Yog'li qo'lini sochiqqa artdi. Dasturxonga yog'li palov keltirildi. Bunda yog'li so'zining ko'p ma'noli bo'lishiga -li qo'shimchasining polisemantikligi sabab bo'lgan. Gulchi so'zi – "gul ekib, uni etishtiruvchi" va "gul sotuvchi" (gulfurush) ma'nolarini bildiradi.

Savol va topshiriqlar.

1. So'zning semantik tarkibiga nimalar kiradi?
2. Leksik ma'no nima?
3. Tushuncha nima?
4. Leksik ma'noning qanday turlarini bilasiz?
5. Qanday ma'nolar nominativ ma'no, qanday ma'nolar majoziy ma'no deb ataladi?
6. Erkin va bog'li ma'nolarning bir-biridan farqini tushuntiring.
7. Qo'shimcha ottenka nima?
8. Hissiy bo'yoq deganda nimani anglaysiz? Bunday bo'yoqli so'zlarni misollar asosida tushuntirib bering.
9. Uslubiy belgi nima? Shunday belgisi bor bo'lgan so'zlarga misollar toping.
10. Bir ma'noli so'zlar deb nimaga aytiladi?
11. Ko'p ma'nolilik haqida so'zlang?
12. Polisemem so'zlar qanday yo'llar bilan yuzaga keladi?
13. Ko'p ma'nolilikning yasama so'zlar vositasida yuzaga kelishiga misollar keltiring.

3-modul:Leksik ma'no taraqqiyoti.

Reja:

2. So'zning semantik tarkibi (strukturasi)ning o'zgarishi haqida umumiy ma'lumot.
3. So'zning yangi ma'no kasb etishiga olib keluvchi omillar.
4. Nom ko'chishi asosida yangi ma'no hosil qilishning turlari – metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik.
5. Lisoniy omil asosida yangi ma'noning hosil bo'lishi.
6. Ma'noning kengayishi va torayishi.

Tayanch iboralar: semantik tarkib (struktura), ko'p ma'nolilik, leksik ma'no, ma'no miqdori, nolisoniy omil, lisoniy omil, nom ko'chishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ellipsis, kalka, semantik kalka, yangi ma'no, ma'noning kengayishi, ma'noning torayishi.

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.

4. Берматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Т.: Talqin. 2005.
6. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. –Т.: Фан, 1982.
7. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Тошкент: Фан, 1983.
8. www.ziyounet.uz.

Soʻz semantik tarkibining oʻzgarishi – til taraqqiyoti jarayonini belgilovchi muhim omillardandir. Semantik tarkibning oʻzgarishida ikki holat – leksik maʼno nuqtai nazaridan oʻzgarish va qoʻshimcha ottenkalar boʻyicha oʻzgarish koʻzga tashlanadi. Leksik maʼno nuqtai nazaridan boʻladigan oʻzgarish: 1) leksik maʼno miqdorining oʻzgarishi va 2) leksik maʼno hajmining oʻzgarishi hodisalarini oʻz ichiga oladi.

Leksik maʼno miqdorining oʻzgarishida ikki narsa – maʼno miqdorining ortishi va maʼno miqdorining kamayishi kuzatiladi. Maʼno miqdorining ozayishi kam uchraydigan hodisadir. Bunga koʻra oʻtmishda koʻp maʼnoni bildirgan soʻzlarning baʼzi maʼnolari davrlar oʻtishi bilan yoʻq boʻlib ketadi, oʻsha maʼnoda qoʻllanmaydi. Masalan, eski oʻzbek tilida tom soʻzi: 1) tamba, tirgovich; 2) devor; 3) uy; 4) uyning tepa qismi maʼnolarida ishlatilgan. Hozirda bu soʻzning 1, 2, 3-maʼnolari qoʻllanilishdan qolgan. Demak, tom soʻzining maʼno miqdori kamaygan.

Soʻz maʼno miqdorining ortib borishi – koʻp maʼnolilik til taraqqiyoti darajasini, rivojlanishini koʻrsatuvchi asosiy omillardan sanaladi. Aytish zarurki, soʻzlar dastlab paydo boʻlgan vaqtida birgina maʼnoni ifoda etgan. Keyinchalik obʼektiv borliqdagi narsa-hodisalarning oʻzgarishi, ijtimoiy hayotda boʻladigan har xil oʻzgarishlar va boshqa shu singari turli sabablar tufayli soʻzlar yangi maʼnolar kasb eta boshlagan. Darhaqiqat, soʻzlarning birdan ortiq maʼnoga ega boʻlishi oʻsha soʻzlar hayotining keyingi davrlariga borib taqaladi. Masalan, olmoq feʼli hozirgi oʻzbek tilida 30 ga yaqin maʼnoni bildiradi: 1) narsani ushlab yoki biror asbob bilan tutib qoʻlga kiritmoq; chaqalarni olmoq, ariqdan suv olmoq; 2) qabul qilmoq; ishga olmoq; 3) boʻshatmoq; ishdan olmoq; 4) tushirmoq, boʻshatmoq; elkasidan yukini olmoq; 5) qoʻlga kiritmoq, ega boʻlmoq; paxtadan moʻl hosil olmoq; 6) xarid qilmoq...

Soʻzning yangi maʼno kasb etishi maʼlum bir obʼektiv sabablar asosida roʻy beradi. Soʻzning yangi maʼno kasb etishiga olib keluvchi omillar ikki turlidir: 1) nolisoniy omil, 2) lisoniy omil.

Nolisoniy omil deyilganda nom koʻchishi asosida yangi maʼnoning hosil boʻlishi tushuniladi. Nom koʻchishi – soʻzning yangi maʼno hosil qilishida asosiy hodisa hisoblanadi. Bunda maʼlum narsa, belgi, harakat bildiruvchi soʻz qandaydir oʻxshashlik, oʻzaro aloqadorlik, bogʻliqlik kabilar asosida boshqa bir narsa, belgi, harakatni ham ataydigan boʻlib qoladi, uning ham nomi sifatida ishlatila boshlaydi.

Nom koʻchishi asosida yangi maʼno hosil qilishning toʻrt turi mavjud. Bular quyidagilardir: 1) metafora, 2) metonimiya, 3) sinekdoxa, 4) vazifadoshlik.

Metafora. Nom koʻchishi yoʻli bilan yangi maʼno hosil qilishdagi asosiy hodisalardan biri metafora hisoblanadi. Biror narsa, belgi, harakat nomining oʻzaro tashqi oʻxshashligi boʻlgan boshqa narsa, belgi, harakatga nom qilib koʻchirilishi metafora deb yuritiladi. Bunda birorta tomoni – shakli, koʻrinishi, rangi, mazasi, taʼmi, joylashish oʻrni va boshqa xususiyatlari oʻxshash boʻlgan ikkita predmet, belgi, harakatdan birining nomi ikkinchisiga koʻchiriladi. Masalan, tish soʻzi aslida “odamning tishi” maʼnosi ifoda etgan. Keyinchalik u shakliy, qisman vazifaviy oʻxshashlik asosida “arraning tishi” maʼnosini ham anglata boshlagan. Bel soʻzi dastlab “odamning beli” maʼnosida qoʻllangan, soʻng joylashish oʻrni, qismi jihatidan oʻxshashlik tufayli “togʻning beli” maʼnosida ham ishlatilib ketgan. “Qatnov joyi” maʼnosini ifodalovchi yoʻl soʻzining (katta yoʻldan ketish) “satr, qator” (toʻrt yoʻl sheʼr) maʼnosida ishlatilishi ham shakliy oʻxshashlikka asoslangandir.

Metafora asosida nom koʻchishining bir necha koʻrinishlari bor. Ular asosan ot, sifat, feʼl turkumiga oid soʻzlarda uchraydi. Bularni tubandagicha koʻrsatmoq mumkin.

1. Bir narsaning nomi o`zaro o`xshashligi bo`lgan ikkinchi boshqa narsaga ko`chiriladi, uning ham atamasiga aylanadi: og`iz (odamning og`zi – shishaning og`zi), yoqa (ko`ylakning yoqasi – soy yoqasi), etak (choponning etagi – tog`ning etagi), ko`z (odamning ko`zi – derazaning ko`zi), palla (tarozining pallasi – tarvuzning pallasi), tumshuk (laylakning tumshug`i – kemanding tumshug`i), qosh (odamning qoshi – egarning qoshi), cho`qqi (tog` cho`qqisi – fan cho`qqisi) kabilar.

2. Biror narsaga xos belgi nomi boshqa narsadagi belgiga ko`chiriladi: shirin (shirin olma – shirin so`z), iliq (iliq suv – iliq munosabat), sovuq (sovuq suv – sovuq xabar), egri (egri tayog – egri ish), beg`ubor (beg`ubor osmon – beg`ubor odam), og`ir (og`ir tosh – og`ir yumush), achchiq (achchiq qalampir – achchiq gap), qattiq (qattiq bodom – qattiq uyqu), yumshoq (yumshoq non – yumshoq ovoz), tez (tez yurmoq – tez odam), taqir (taqir cho`l – taqir bosh), uzoq (uzoq yo`l – uzoq qarindosh), yaqin (yaqin masofa – yaqin kishi), xom (xom hosil – xom gap), toza (toza suv – toza qalb), tiniq (tiniq havo – tiniq fikr), baland (baland bino – baland baho) singarilar.

3. Biror narsaga xos harakatning nomi boshqa narsadagi harakatga ko`chiriladi: ulamoq (arqonni ulamoq – gapni gapga ulamoq), bo`g`ilmoq (arqonga o`ralib bo`g`ilmoq – ishtahasi bo`g`ilmoq), cho`kmoq (imoratning cho`kishi – kishining keksayganda cho`kishi), tushmoq (tomdan tushmoq – mudirlikdan tushmoq), tashlamoq (supurgini tashlamoq – qo`lni elkaga tashlamoq), uchmoq (qushlarning uchishi – samolyotning uchishi), buzmoq (changalzorni buzmoq – rejani buzmoq) kabilar.

Nomning metafora yo`li bilan ko`chirilishida ko`proq quyidagilar asos bo`lib xizmat qiladi: 1) kishi tana a`zolarining nomlari (yuz, bet, bosh, elka, oyoq, qosh, lab, biqin, og`iz, bel, ko`z, iyak, bo`yin, burun kabilar); 2) kiyim-kechak qismlarining nomlari (etak, yoqa); 3) hayvon, parrandalarning a`zolari nomlari (qanot, dum, tumshuq); 4) o`simlik qismlarining nomlari (ildiz, tomir); 5) turli belgilarni ifodalovchi so`zlar (baland, past, egri, shirin, og`ir, xira, chuqur, engil, bemaza, xom singarilar); 6) harakatni ifoda qiluvchi so`zlar (tashlamoq, uchmoq, ulamoq, savalamoq, cho`kmoq, tushmoq, buzmoq, ayirmoq kabilar).

Metonimiya. (yunoncha metonimiya – o`ayta nomlash. Bunday khchirish predmetlar yoki xodisalarning hzaro aloo`adorligiga asoslanadi. Buning o`uyidagi khrinishlari bor:

a) hsimlikning nomishu hsimlik mevasidan yoki bosho`a biror o`ismidan tayyorlangan maxsulotga khchiriladi: choy (hsimlikning bir turi) – choy (shu hsimlikning barglaridan tayyorlangan ichimlik), o`axva (o`axva daraxti) – o`axva (shu daraxt mevasidan tayyorlangan ichimlik)

b) zamon va makonda bir birining bhlishin tao`ozo o`ilgan 'amda birga o`hllanadigan ikki yoki bir necha predmetdan birining nomi ikkinchisiga khchiriladi: bir piyola choy ichmoo` (piyola hz maonosida) – bir piyola ichmoo` (piyola khchma maonoda)

v) bir predmetning nomi shu predmetdagi bosho`a bir voo`elikka khchiriladi: sinf (ho`uv xonasi) – sinf (ho`uvchilar guru`i)

g) narsa nomi shu narsaga asoslangan hlchov birligiga nom bhlb khchada: kun (o`uyosh) – kun (sutkaning yorio` o`ismi)

d) belgining nomi shunday belgisi bor bhlgan narsaga khchiriladi: khk (rang nomi) – khk (khkat)

e) asar muallifining nomi nuto`da asar maonosida o`hllangan bhlishi mumkin: Navoiyni ho`idim kabi.

Sinekdoxa hodisasi ko`proq o`simlik nomlarida uchraydi. Darhaqiqat, tilimizda meva nomlari (olma, anor, bodom, o`rik, gilos, yong`oq, shaftoli, jiyda, tut kabilar) bilan shu mevalarni beruvchi daraxtlarni atash keng tarqalgan. Bularda qism orqali butun ifodalangan. Quyidagi misollarni qiyoslang: Men go`sht-yog`ni tashlab bo`lib, hovlining to`riga o`rik tergani bordim (M.Ismoil). Derazamning oldida bir tup o`rik oppoq bo`lib gulladi (H.Olimjon). Ular boqqa chiqib to`kilgan yong`oqlarni terib turganda, Jonizog oqsoqol qaytib keldi (S.Anorboev). Adolat chiroqlarni yoqib yuborib, yong`oq tagidagi supaga joy qildi (I.Rahim).

Vazifadoshlik. Ma`lum bir narsa nomi bajaradigan vazifasidagi birlik asosida yangidan

paydo bo'lgan ikkinchi bir narsaga nom bo'lib ko'chishi mumkin. Bu vazifadoshlik asosida nom ko'chishi deyiladi. Masalan, o'q so'zi dastlab kamon (yoy) bilan otiladigan to'g'ri, uzun qurolni bildirgan. Keyinchalik miltiq, pulemyot, zambarak, to'p ixtiro qilingach, ulardan otiladigan qurol ham o'q nomi bilan yuritilib ketgan. Bu vazifasi jihatdan o'zaro o'xshashlik tufayli yuz bergan. Darhaqiqat, kamon o'qi bilan zamonaviy qurollardan otiladigan o'qlar o'rtasida bajaradigan vazifasidan boshqa birorta o'xshashlik mavjud emas.

Vazifadoshlik asosida nom ko'chishida narsalarning shakli, yasalishi, materiali e'tiborga olinmaydi. Bunda narsalarning bajaradigan vazifasidagi o'xshashlik tomonlari nazarda tutiladi. Ilgari tugma so'zi asosan bog'ich ma'nosida ishlatilgan. U tilimiz tarixini ko'rsatuvchi ko'pgina yodgorliklarda o'z aksini topgan. Kiyimning ochiq joyini yopish, yopiq joyini ochishda tugma-bog'ichlardan foydalanilgan. Tugma-bog'ichni ifoda etgan narsa turmushda eskirib qo'llanmaydigan holga kelib qolgandan keyin uning o'rnida plastinkacha qo'llana boshlagan. Tilimizda plastinkachani mazkur tugma so'zi ifodalaydigan bo'lgan. Har ikki tugmaning shakli, materiali bir-biridan farq qiladi. Ular o'rtasida faqat vazifaviylik jihatdan o'xshashlik bor, xolos.

Yangi ma'noning hosil bo'lishida lisoniy omil ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda ikki yo'l: 1) ellipsis va 2) semantik kalka vositasida yangi ma'no hosil qilinadi.

Ellipsis asosida yangi ma'no yuzaga kelganda aslida birikmaga teng birlik tarkibidan biror so'z tushib qoladi. Natijada shu birikmaga xos ma'noni bir so'z ifodalaydigan bo'lib qoladi. Masalan, Bozordan qaytishga tayyorlangan ovqat ugra ekan (Sh.Rizo). Ushbu gapda ugra so'zi asli ugra oshi birikmasini bildirgan. Bu birikmadagi osh so'zi ellipsisga uchrab qo'llanmasligi natijasida birikmaga xos ma'no ugra so'zining o'ziga taalluqli bo'lib qolgan, ya'ni ugra ovqatning nomiga ham aylangan. Dafnga tayyorgarlik ko'ra beringlar. Juda nari borsa ertaga, bo'lmasa shu bugun kechasi uziladi (P.Tursun) gapida uzilmoq fe'li "o'lmoq" ma'nosiga ega. Aslida bu joni uzilmoq birikmasiga xos ma'no. Birikma tarkibidagi jon so'zi qo'llanmaydigan bo'lib borishi tufayli birikmaga xos ma'noni ("o'lmoq" ma'nosini) uzilmoq so'zining o'zi ifoda etib kelmoqda.

Yangi ma'no hosil bo'lishiga olib keluvchi lisoniy omillardan yana biri semantik kalkadir. Bunda chet, chunonchi, ruscha so'zlarga xos ma'no (yoki ma'nolar) tilimizga o'zlashtiriladi. Masalan, san'at saroyi, madaniyat saroyi birikmalaridagi saroy so'zining ma'nosi bevosita dvorets isskustva, dvorets kulturo' birikmalarining kalka yo'li bilan o'zlashtirish asosida vujudga kelgan. Sirtqi so'zining sirtqi o'qish birikmasidagi ma'nosi zaachnoe obuchenie birikmasining kalkasi tufayli paydo bo'lgan. Semantik kalka vositasida yangi ma'no hosil bo'lishi, ayniqsa, terminologik leksikada ko'p uchraydi.

Leksik ma'no nuqtai nazaridan bo'ladigan o'zgarishning ikkinchi bir turi leksik ma'no hajmining o'zgarishidir. Leksik ma'no hajmining o'zgarishi deyilganda ma'noning kengayishi va ma'noning torayishi tushuniladi. So'z ma'nolarining kengayishi va torayishi so'zlarning ma'no taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

Ma'noning kengayishi. Jamiyat va til taraqqiyoti so'z ma'nolarining kengayishi uchun imkoniyat yaratadi. Bunda bir ma'no asosida ikkinchi leksik ma'no (yasama ma'no) yuzaga kelmaydi, faqat shu leksik ma'noning hajmi kengayadi. Masalan, tilimizda vatan so'zi ilgari uyjoy, tug'ilib o'sgan qishloqni ifodalagan, hozir u butun mamlakat, ona-yurtni anglatadi. Yurak so'zi kishi a'zolaridan biri ma'nosidan tashqari keng ma'noda – ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'idagi organlarni ham ifodalaydi.

Ma'noning torayishi. Leksik ma'noning torayishi so'z ma'nosining kengayishiga zid hodisadir. Ma'noning torayishi avvalambor umumiylikni ifodalovchi so'zning ayrim, xususiy ma'noni ifodalashi natijasida yuzaga keladi. Masalan, tariq so'zi o'tmishda umuman don ma'nosida qo'llangan, hozir esa donning bir turini ifodalaydi. M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qayd etilishicha, XI asrda kiyik so'zi barcha vahshiy hayvonlarga nisbatan ham qo'llangan, so'ng hayvonlarning bir turi – ohuni ifodalashga xoslanib qolgan. Osh so'zi bir vaqtlar issiq ovqatning barcha turini anglatgan, keyinchalik uning ma'nosi torayib, faqat palov ma'nosini ifodalash uchun qo'llanadigan bo'lib qolgan.

Savol va topshiriqlar.

1. Soʻz semantik tarkibining oʻzgarishi deganda nimani tushunasiz?
2. Soʻzning yangi maʼno kasb etishiga olib keluvchi omillar qaysilar?
3. Nolisoniy omil nima?
4. Nom koʻchishi asosida yangi maʼno hosil qilishning qanday turlari bor?
5. Metafora hodisasi haqida soʻzlab bering.
6. Metonimiya hodisasiga taʼrif bering va misollar keltiring.
7. Metonimiyaning metaforadan farqini tushuntirib bering.
8. Sinekdoxa – koʻchma maʼno hosil qilishning qanday usuli?
9. Vazifadoshlik hodisasini taʼriflang va unga misollar ayting.
10. Sinekdoxaning metafora va metonimiyadan farqi nimada?
11. Metafora asosida nom koʻchishining qanday koʻrinishlari bor?
12. Nomning metafora yoʻli bilan koʻchirilishida koʻproq nimalar asos boʻlib xizmat qiladi?
13. Metonimiyaning shaxs va joy bildiruvchi otlarda uchrashligiga misollar aytib, ularni izohlang.
14. Sifat va feʼl soʻz turkumlarida metonimiyaning sodir boʻlishiga misollar keltiring va maʼno koʻchish sabablarini izohlang.
15. Lisoniy omil asosida yangi maʼno hosil qilishning nechta yoʻli bor?
16. Ellipsis hodisasini taʼriflang, ularga misollar ayting.
17. Semantik kalka xususida bilganlaringizni bayon qiling.
18. Maʼnoning kengayishi va torayishi hodisalarini misollar asosida izohlab bering.

4-modul: Oʻzbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.

Reja:

1. Oʻzbek tili lugʻat tarkibidagi soʻzlarning kelib chiqishi haqida umumiy maʼlumot.
2. Oʻz va oʻzlashgan qatlam
3. Soʻz oʻzlashtirish yoʻllari va usullari.
4. Arxaizm va istorizmlarning bir-biridan farqli tomonlari.
5. Neologizmlarning paydo boʻlishi yoʻllari.

Tayanch iboralar: oʻz qatlam, oʻzlashgan qatlam, umumturkiy soʻzlar, oʻzbekcha soʻzlar, arabcha soʻzlar(arabizmlar), tojikcha soʻzlar, ruscha soʻzlar, soʻz oʻzlashtirish, kalka, zamonaviy qatlam, eski qatlam, tarixiy soʻzlar (istorizmlar), arxaizmlar, yangi qatlam, neologizm, umumtil neologizmlari, shaxsiy (individual) nutq neologizmlari, okkazonal soʻzlar.

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.
4. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.
5. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.
6. www. ziyonet.uz.

Tilimizning lugʻat tarkibida oʻzimizniki boʻlgan soʻzlardan tashqari boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlar ham mavjud. Bu tabiiy holdir. Chunki oʻzbek xalqi oʻz tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada boʻlib kelgan. Mana shu

aloqa-aralashuv natijasi o'laroq tilimizga boshqa tillardan so'zlar kirib, o'zlashib ketgan. Shu nuqtai nazardan adabiy til so'zarini tarixiy kelib chiqishiga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: 1. O'z qatlam so'zari. 2. O'zlashgan qatlam so'zari.

O'z qatlam so'zari. O'z qatlamga turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan hamda o'zbek tilining o'ziniki bo'lgan so'zlar kiradi. Turkiy tillar uchun umumiy, mushtarak bo'lgan so'zlar umumturkiy so'zlar deyiladi. Umumturkiy so'zlar asrlar davomida o'zbek, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, turkman, ozarbayjon va boshqa turkiy tillarda qo'llanib kelgan so'zardir. Bunday so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibining asosini tashkil etadi. Umumturkiy so'zlar deyarli barcha so'z turkumlarida mavjud. Bularga tog', suv, tosh, til, qo'l, bola, er (otlar), oq, qora, qizil, ko'k, sariq, yaxshi, yomon (sifatlar), bir, ikki, uch, besh, olti, sakson, tuqson, yuz, ming (sonlar), men, sen, u, biz, siz, ular, qanday, qachon (olmoshlar), kelmoq, bormoq, turmoq, qaramoq, olmoq (fe'llar), ildam, erta, indin, ilgari (ravishlar) kabilar misol bo'la oladi. Mazkur so'zlarning ba'zilari fonetik jihatdan yoki talaffuz qilinishiga ko'ra farq qilishi mumkin. Lekin shunday bo'lsa-da, ularning kelib chiqish asosi birdir.

O'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari, qonun-qoidalar asosida yaratilgan so'zlar o'zbekcha so'zlar deb yuritiladi. O'zbekcha so'zar quyidagi yo'llar asosida yaratiladi:

1. Asli o'zbekcha so'zlarga shu tilga oid qo'shimchalarni qo'shish orqali yasalgan so'zlar. Bunda -chi, -ma, -lik, -gich, -im singari o'zbekcha qo'shimchalar vositasida yasama so'zlar hosil qilinadi: suvchi, terimchi, o'quvchi, o'qituvchi, boshlovchi, kesma, terlama, boshqarma, qorishma, bosma, otalik, onalik, bolalik, yaxshilik, yomonlik, suzgich, muzlatgich, o'g'itlagich, sovitgich, terim, yig'im, bo'lim va boshqalar.

2. Boshqa tillardan kirgan so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalarni qo'shish orqali yasalgan so'zlar. Bunda o'zbekcha so'zar quyidagicha hosil qilinadi: 1) tojikcha so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalarni qo'shish asosida yaratiladi: jangchi, mardlik, tanburchi, dutorchi, vayronalik, sabzavotchilik, chorvachilik; 2) arabcha so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalarni qo'shish vositasida hosil qilinadi: maorifchi, maslahatchi, jamoatchi, murabbiylik, zamondosh, vazirlik, rahbarlik, ovqatlanmoq; 3) ruscha-baynalmilal so'zlarga o'zbekcha qo'shimchalarni qo'shish orqali yasaladi: traktorchi, sportchi, shofyorlik, demokratlashtirish, elektrlashtirish, mexanizatsiyalashtirish, betonlamoq singarilar.

3. Boshqa tillardan o'tgan yasovchi vositalar yordamida o'z va o'zlashma qatlamdan hosil qilingan so'zlar. Bunda qo'shimcha o'zga tilga oid bo'ladi, asos so'z o'zbekcha, tojikcha, arabcha, ruscha so'zlardan tashkil topadi: kitobxon, jurnalxon, bilimdon, savodxon, ma'rifatparvar, adabiyotshunos, tilshunos, partiyaviy, ommaviy, soatsoz, vagonsoz, uysoz, mashinasoz, noaniq, serish, sertarmoq, serhosil, madadkor, bunyodkor, notinch, beish, chizmakash, yo'lsoz, ilmiy, tarbiyaviy, oilaviy kabilar.

O'z qatlam so'zarining bir guruhini kompozitsiya usuli bilan yasalgan qo'shma so'zlar tashkil qiladi. Qo'shma o'zbekcha so'zar quyidagicha hosil etiladi: 1) bir lug'aviy qatlamga mansub so'zardan yasaladi: issiqsevar, belkurak, ituzum, suvqovoq, baqaterak, yiloshi, tomorqa, otboqar, tezpushar, quloqcho'zma, olaqarg'a; 2) turli lug'aviy qatlamga mansub so'zlardan yasaladi: yondaftar, tilxat, buyintumor, havorang, radioaloqa, fotonusxa, umumshahar, qumshakar, boshpana, kelinsalom, otameros, kitobsevar, sheryurak kabilar.

O'z qatlam so'zari bir qator xususiyatlari bilan o'zlashma qatlam so'zaridan farqlanib turadi. O'z qatlamga oid so'zarning eng muhim, asosiy belgilari quyidagilardir:

1. O'z qatlamga oid so'zarning ko'pchilik qismi ko'p ma'nolidir, polisemantik xarakterga egadir. O'zlashma so'zarda bu xususiyat chegaralangan.

2. O'z qatlam so'zarining aksariyati aniq ma'noli so'zlardir. O'zlashma qatlamga tegishli so'zlar esa ko'proq mavhum ma'nolidir.

3. O'z qatlam so'zari fonetik tuzilishiga ko'ra asosan bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli, uch bo'g'inli bo'ladi. Bir bo'g'inli tub so'zlar ko'proq undosh Q unli Q undosh shakliga ega bo'ladi.

4. O'z qatlam so'zari r, l, v, g, , d, z tovushlari bilan boshlanmaydi va hz o'atlam shzlarida f, ', j (siraluvchi), s kabi undoshlar umuman o'atnashmaydi.

5. O'z qatlam so'zarida birinchi bo'g'indan keyingi bo'g'inlar hech vaqt unli tovush bilan

boshlanmaydi.

6. O'z qatlamga oid so'zlarning oxiri e(e), o' unlisi bilan tugamaydi. Ba'zi undov va taqlidiy so'zlar (he, ehe, o'ho', bo', mo' kabilar) bundan mustasno.

7. O'z so'zarda bo'g'in boshida, o'rtasida va oxirida ikki undosh qatorasiga kelmaydi. Ost, ust, art, arch, berk, gurs, yilt kabi so'zlar bundan mustasno.

8. O'z qatlam so'zlari tarkibida bo'g'iz undoshi h, qorishiq s kelmaydi. Him, uh, ah, ha-ha kabi ayrim so'zlar bundan mustasno.

9. Grafik jihatdan o'z qatlamga oid so'zlarda ' (tutuq), (yumshatish) belgilari ishlatilmaydi.

10. O'zbekcha so'zlarda urg'u odatda oxirgi bo'g'inda bo'ladi.

O'zlashgan qatlam so'zari. O'zbek tili lug'at tarkibining boyishi va takomillashuvida ichki manba bilan bir qatorda tashqi manba ham muhim rol o'ynaydi. Tashqi manba deyilganda boshqa tillardan so'z o'zlashtirish orqali lug'at tarkibining boyishi tushuniladi. O'zbek tilining boshqa qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqasi tufayli bu tillardan o'zbek tiliga ma'lum miqdorda so'zlar o'zlashib qolgan. O'zlashgan so'zarning asosiy qismi forscha-tojikcha, arabcha, ruscha so'zlardan iboratdir.

Tojikcha so'zlar. Hozirgi o'zbek tili leksikasida tojikcha so'zlar salmoqli o'rinni egallaydi. Miqdor jihatdan o'zbekcha so'zlardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu bejiz emas, albatta. Darhaqiqat, o'zbeklar va tojiklar qadimiy davrlardan bir hududda, birgalikda qo'shni, aralash holda yashab kelganliklari, o'zaro har jihatdan iqtisodiy, xo'jalik sohalarida yaqindan aloqada bo'lganliklari tufayli o'zbek tiliga tojik tilidan ko'plab so'zlar kirib, o'zlashib ketgan. Tojikcha so'zlarga bahor, chashma, chillar, hafta, durbin, dasturxon, chilopchin, jo'yak, panshaxa, ro'mol, dastro'mol, optoba, yaxob, yaxna, chorsu, chorraha, pazanda singarilarni misol qilib keltirish mumkin.

Tilimizga o'zlashgan tojikcha so'zlarning ko'pchiligi ko'proq aniq va real narsa, hodisalarning nomlaridir. Tojikcha o'zlashmalar kundalik turmush uchun eng zaruriy va ko'p qo'llanuvchi so'zardir.

Tojikcha so'zlarning ba'zi fonetik xususiyatlari u so'zlarni boshqa tillardagi so'zlardan farqlab turadi. Masalan, j tovushi tojik tiliga xos bo'lib, u gijda, mujda kabi so'zlar tarkibida tilimizga kirib kelgan. – and (farzand, monand), -xt (baxt, taxt, daraxt, karaxt, poytaxt), -sht (go'sht, musht, dasht, g'isht), -mon (armon, darmon, qahramon), bar- (barno, barpo, barbod), dar- (darbon, dargoh, dargumon, darbadar, darrov, darhol) kabi elementlar ham tojikcha so'zlarni boshqa so'zlardan farqlab turadi.

Arabcha so'zlar. O'zbek tili leksikasida arabcha so'zlar alohida o'rin tutadi. Arabcha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi arablar tomonidan O'rta Osiyo hududining bosib olinishi va buning tarixiy-ijtimoiy oqibatlari bilan bog'liq. O'tmishda arab tilining hukmron til – rasmiy davlat tili, ta'lim tili, fan va madaniyat tili, badiiy adabiyot tili, din va shariat tili bo'lganligi arabcha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi uchun sababchi bo'lgan. Hozirda tilimizda faol qo'llanilayotgan maktab, maorif, kotib, muxbir, ma'naviyat, san'at, adabiyot, xalq, vazir, shoir, vatan, davlat, maqola, ilm, asar, ta'lim, sanoat, axborot, xodim, tarjimon, talaba, janub, shimol, anhor, hovuz, ariza, imzo, xat singari so'zlar arabcha o'zlashmalardir.

Arabcha so'zlarni mavzuiy jihatdan bir necha guruhga bo'lib o'rganish mumkin. Chunonchi: 1) ijtimoiy davlat tuzumiga oid so'zlar (hukumat, mamlakat, fuqaro, hokimiyat, farmon, islohot, ittifoq), 2) adabiyotga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar (aruz, bayt, ruboiy, adib, hikoya, masal, maqol, qofiya, vazn, radif, tazkira), 3) maktab-maorif, ta'limga oid so'zlar (ta'lim, talaba, savod, imtihon, axloq, murabbiy, davomat, muallim), 4) diniy tushunchalar bilan bog'liq so'zlar (avliyo, machit, shariat, hayit, karomat, duo, farz, tahorat, qur'on) va boshqalar.

Arabcha so'zlarning o'ziga xos muhim belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: 1) so'z boshida –ma, -mu elementlari keladi: madrasa, maktab, majlis, muhokama, mudarris, munaqqid, mutarjim, musavvir, muzokara kabilar; 2) so'z oxirida –ot, -yat, -yot, -at elementlari qatnashadi: targ'ibot, tashviqot, axborot, zaruriyat, hokimiyat, jamiyat, kashfiyot, tibbiyot, zurriyot, tijorat, saxovat singarilar; 3) so'z tarkibida ' (tutuq belgisi) ishtirok etadi: san'at, a'lo,

ra'no, ma'no, ta'til, me'mor, ta'zim, e'tiroz, sur'at, e'tiqod, e'lon kabilar; 4) so'zning tarkibiy qismida ikki unli yonma-yon keladi: oila, shoir, doir, saodat, maorif, jamoat, qiroat singarilar.

Ruscha so'zlar. Adabiy tilimiz leksikasida ruscha-baynalmilal so'zlarning salmoqli qatlami mavjud. Ruscha o'zlashma so'zar o'zbek tilining rus tili bilan aloqasi tufayli yuzaga kelgan. Ruscha qatlamga mansub so'zlar XIX asrning to'rtinchi choragidan e'tiboran kirib kela boshlagan. Bu davrda tilimizga rus tili va u orqali boshqa tillardan samovar, pochta, elektr, teatr, vistavka, mashina, vagon, vokzal, poezd, artist kabi so'zlar kirib, o'zlashib ketgan.

Ruscha o'zlashma so'zar mavzuiy jihatdan bir necha guruhni tashkil etadi. Ularning ba'zilari tubandagilar: 1) oziq-ovqatga doir nomlar: kartoshka, limonad, konfet, kofe, makaron, vermishel, bifshteks, ikra, tort, kakao, kasha; 2) uy-ro'zg'or buyumlari nomlari: lampochka, grafin, kreslo, divan, shkaf, stol, stul, karovat; 3) kiyim-kechak nomlari: kombinzon, palto, kostyum, kofta, botinka, shinel, noski, chulki; 4) harbiy ish va fizkultura, sportga oid so'zlar: matros, serjant, leytenant, mayor, diviziya, gimnastika, basketbol, billiard, domino, voleybol, futbol, boks; 5) ijtimoiy so'z va atamalar: s'ezd, diktatura, demokratiya, partiya, deputat; 6) savdo va moliyaga oid so'zlar: magazin, gastronom, bufet, yarmarka, kredit, byudjet, pavilon, obligatsiya, bank; 7) qishloq xo'jaligiga oid so'zlar: brigadir, zveno, kultivatsiya, mexanizatsiya, traktor, kombayn, buldozer va shuning singarilar.

O'zbek tiliga rus tilidan va u orqali dunyoning boshqa tillaridan kirib kelgan so'zlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansubdir: 1) rus tiliga: samolyot, stol, stul, tok, ruchka, sudya, sud, parovoz, konfet, pulemyot, paroxod, teploxod, kartoshka, pechka, publitsist kabilar; 2) nemis tiliga: shtab, shaxta, rota, galstuk, shifer, kran, orden, landshaft, balet, buterbrod, raketa, lager, politziya, linza, fakultet, kolba singarilar; 3) lotin tiliga: senat, operatsiya, deputat, auditoriya, respublika, direktor, laboratoriya, sirk, general, nota, metall, formula, laureat, professor, dotsent, magistr, opponent, prezident, referat, dissertatsiya, abiturient kabilar; 4) grek tiliga: pedagog, grammatika, kafedra, alfavit, tezis, poema, poeziya, teatr, ideya, drama, komediya, tragediya, lirika, mikrofon, filologiya, olimpiada, filosofiya, leksika, psixologiya va boshqalar; 5) ingliz tiliga: voleybol, futbol, vokzal, miting, tramvay, klub, byudjet, boks, finish, chempion, dollar, tank, rels, bifshteks, tort, tennis, kontsern, test, fermer, film, kross, lift kabilar; 6) frantsuz tiliga: kostyum, palto, etaj, mebel, bufet, kabinet, kotlet, ragu, kompot, krem, flot, aktyor, serjant, leytenant, kapitan, artilleriya, desant, antrikot, foye, repertuar, lyustra kabilar; 7) italyan tiliga: opera, libretto, benzin, bank, ariya, loja, valyuta, gazeta va shuning singarilar.

Bir tildan boshqa ikkinchi tilga so'z o'zlashtirishning o'ziga xos yo'llari va usullari bor. So'z o'zlashtirish ikki yo'l: 1) jonli so'zlashuv orqali va 2) yozma manbalar orqali amalga oshiriladi. Tilimizdagi tojikcha so'zlarning ko'pchiligi jonli so'zlashuv orqali o'zlashtirilgan. Arabcha o'zlashmalarning asosiy qismi yozma manbalar orqali o'tgan. Ruscha so'zlar ham jonli so'zlashuv, ham yozma manbalar vositasida kirib kelgan.

So'z o'zlashtirishning usullari ikki xil bo'ladi: 1) aynan olish, 2) kalkalab olish. Yuqorida qayd etib o'tilgan tojikcha, arabcha, ruscha so'zlar aynan o'zlashtirilgan. Kalkalab olishda so'zning o'zi emas, balki uning ma'nosi o'zlashtiriladi: dunyoqarash (мировоззрение), ustqurma (надстройка), tug'ruqxona (родильный дом), qo'lyozma (рукопись), muzyorag (ледокол), sun'iy yo'ldosh (искусственный спутник) kabilar.

Til leksikasidagi so'zlar zamonaviyligi hamda eskilik va yangilik bo'yog'i borligiga ko'ra 3 qatlamga ajratiladi: 1) zamonaviy qatlam, 2) eski qatlam, 3) yangi qatlam.

Zamonaviy qatlam. Eskilik yoki yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar zamonaviy qatlamni tashkil etadi. Zamonaviy qatlamga oid bunday so'zlar zamonaviy so'zlar deyiladi. O'zbek tili lug'at tarkibining asosiy qismi zamonaviy so'zlardan iboratdir. Umumiste'moldagi so'zlarning barchasi zamonaviy qatlamga mansub bo'ladi. Ular barcha kishilar uchun tushunarli bo'lishi bilan bir qatorda nutqda faol qo'llaniladi: bahor, qish, kuz, g'arb, sharq, er, osmon, tog', tosh, ariq, yomg'ir, qor, daryo, yaxshi, yomon, chiroyli, tor, chuqur, go'zal, kim, birov, har kim, har qanday, tez, oz, ko'p, asta, yozmoq, ovqatlanmoq, uxlamok, yashamoq singarilar. Zamonaviy qatlamga oid so'zlarning ba'zilari nutqda faol qo'llanilmasligi, tor mutaxassislik doirasida ishlatilishi mumkin. Masalan, terminologik leksikaga oid so'zlar shunday so'zlardan

bo'lib, ularning iste'mol doirasi chegaralangan. Lekin bundan qat'iy nazar terminlarning barchasi zamonaviy leksika hisoblanadi.

Eski qatlam. Bugungi adabiy til nuqtai nazaridan eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eski qatlamni tashkil qiladi. Eski qatlamga oid so'zlar asosiy farqli xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) tarixiy so'zlar (istorizmlar), 2) arxaizmlar.

Hozirgi kunda mavjud bo'lmagan, yo'q bo'lib ketgan narsa, hodisalarning nomi istorizmlar deyiladi. Ma'lum davrlarda bor bo'lgan narsa vaqtlar o'tishi bilan hayot taqozasiga ko'ra yo'q bo'lib ketishi mumkin. Narsa yo'qolgach, qo'llanishdan qolgach, tabiiyki, uni ifodalagan so'zlar ham iste'moldan chiqib ketadi, tarixiy so'zga aylanadi. Amir, kanizak, cho'ri, mirzaboshi, qalami, qushbegi, sovut, qozi, mirshab, choriq, mingboshi, oqsoch, haram, yuzboshi kabilar tarixiy so'zlardir.

Istorizmlarni anglatgan ma'nosiga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin: 1) sulolalar, tabaqalar nomini ifodalagan istorizmlar: xon, podshoh, cho'ri, kaniz, amir, hoqon; 2) mansab, amal nomlarini bildirgan istorizmlar: qushbegi, kutvol, qo'rboshi, devonbegi, to'qsoba, qorovulbegi, sarmunshiy, bekjarbegi, eshikog'asi, shig'ovul, mirzaboshi, mirishkor, sarbahodir, tunqator, ponsod, mehtar, otaliq, dodxoh, salomog'asi, risolachi, oftobachi singari; 3) urug', qabila, qavm nomlari (etnonimlar)ni anglatgan istorizmlar: jaloyir, mang'it, nayman, do'rmon, telov, qurama, bag'ish, korabo'yin, kenagas, minglar, yuzlar, qirqlar, qangli, saroy kabi; 4) oziq-ovqat nomlarini bildirgan istorizmlar: uloba, urkamoch, tutmoch, yorma, ko'moch; 5) kiyim-kechak, mato nomlarini ifodalagan istorizmlar: qalami, xosa, parpasha, olacha, kuloh, janda, guppi, sanama; 6) kasb-hunar, mashg'ulot nomlarini bildirgan istorizmlar: sarrof, vofurush, jarchi, axtachi, bojgir, chorakor va boshqalar.

Istorizmlardan o'tmish haqida hikoya qiluvchi badiiy asarlarda, tarix va etnografiyaga oid ilmiy tadqiqotlarda foydalaniladi: Xaram doirasi bukun shovqin-suronsiz edi. Podshohninng bir-biriga yaqin, lekin ayrim-ayrim saroylarda yashagan xotinlari shoh xonadoniga mansub bir shahzodaning to'yiga ketishgan edi (Oybek). Men umrimda to'rt xon ko'rdim, talay biy ko'rdim (Mirtemir).

Eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o'z ekvivalentiga, sinonimiga ega bo'lgan so'zlar arxaizmlar deyiladi. Arxaizmlar bugungi kunda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalari hisoblanadi. Misollar: dudoq (lab), tilmoch (tarjimon), ulus (xalq), yog'i (dushman), irin (lab), diram (tanga), ilik (qo'l), bo'rk (telpak), oraz (yuz), qopqa (darvoza), alam, yalov, tug' (bayroq), falak (osmon), muarrix (tarixchi), cherik (qo'shin), Jayhun (Amudaryo), Sayhun (Sirdaryo), Shosh (Toshkent), Kesh (Shahrisabz), Nasaf (Qarshi) kabilar.

So'zlarning arxaiklashishi turli sabablar bilan bo'lishi mumkin. Tilda narsa-hodisalarni ifodalovchi birdan ortiq so'z bo'lsa, til qonuniyatlari talabiga javob beradiganlari iste'molda qolib, boshqasi sekin-asta iste'moldan chiqib boshlaydi va u o'z sinonimiga nisbatan eski so'zga aylanadi. Demak, sinonimlar nutqda bir xil, teng ishlatilmasligi natijasida ulardan ba'zilari arxaizmga aylanadi. Umuman, arxaizmlarning tug'ilish sabablarini izohlash ko'p hollarda qiyin bo'ladi.

Yuqorida aytilganlardan anglashiladiki, arxaizm ham, istorizm ham eski so'z. Bu jihatdan ular o'zaro aloqadorlikka ega. Lekin shunday bo'lsa-da, arxaizmlar bilan istorizmlar o'rtasida talay farqlar mavjud. Bu farqlarning ba'zilari quyidagilar:

1. Arxaizm hozirgi kunda mavjud bo'lgan narsa-hodisalarning atamasi. Istorizm esa bugungi kunda mavjud bo'lmagan narsa, hodisalarning atamasi.

2. Arxaizmlarning zamonaviy qatlamda o'z sinonimlari bor bo'ladi, u o'z sinonimlari bilan birga qo'llana oladi. Istorizmlarning esa sinonimlari bo'lmaydi.

3. Arxaizmlarning eskirganligi uning sinonimlariga qiyosan baholanadi. Istorizm esa bu imkoniyat yo'q. Istorizmlarning eskirganligi davrga ko'ra baholanadi.

4. Istorizm birdan-bir, yakka nom, uning o'rnini bosuvchi so'z yo'q. Arxaizm esa bir necha nomlardan birining eskirgani; uning o'rnini bosuvchi so'z bor.

5. Arxaizm til tarixiga va tilning hozirgi holatiga ko'ra baholanadi. Istorizm esa faqat til tarixiga ko'ra baholanadi.

6. Arxaizm asosan tilning o'z taraqqiyoti qonunlari bilan izohlanuvchi hodisa. Istorizm esa jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti tarixiga ko'ra izohlanadi.

7. Istorizm faqat atash (nominativ) vazifani bajaradi. Arxaizmlar ham atash, ham uslubiy (stilistik) vazifa bajaradi.

8. Arxaizmlardan uslubiyatda (stilistikada) hamda davr kaloritini berishda foydalaniladi. Istorizmlar esa faqat davr kaloritini yaratishda ishlatiladi.

9. Istorizmnin nolisoiniy omil tug'diradi. Arxaizm esa lisoniy omillar asosida vujudga keladi.

Arxaizmlar badiiy asarlarda davr ruhini, tarixiy sharoitni ko'rsatish uchun, shuningdek, nutqqa tantanavor, ko'tarinki, jo'shqin, nazokatli ruh berish maqsadida ishlatiladi. Misollar: Otabek ularning totiqclarini xo'p boplab berdi (A.Qodiriy). Sarob girdoblari orqada qoldi, tole qopqasini qoqdim asabiy (M.Qo'shmoqov). Kumushbibining sezilar-sezilmas kulimsirashidan yoqutdek irinlari ostidagi sadafdek oq tishlari ko'rinib ketdi (A.Qodiriy). Arxaizmlar hajviy va kulgili asarlarda hazil-mutoyiba, masxara, kinoya ruhini ham berishi mumkin. Masalan: Qassob o'rnidan turib, chuntak kavlashga tushdi. – Mana bizni ash'or! – dedi shimining o'ng cho'ntagidan bir varaq qog'oz chiqarib. – Mana, ana bunisi qiziq, sekretar qizga besh so'm berib, mashinkada chop qildirganman. Qishda pavilonga ot go'shti kelganda yozgan edim (N.Aminovning "Qassob shoir" hajviyasidan).

O'rni kelganda shuni ta'kidlash lozimki, arxaizmlarning ba'zilari vaqtlar o'tishi bilan tilda qayta tiklanishi, faol so'zlar qatoridan o'rin olishi mumkin. So'nggi yillarda bir vaqtlar sun'iy ravishda iste'moldan chiqarilgan, arxaik so'z sifatida baholangan talay so'zlar tilimiz lug'at tarkibidan yana o'z o'rnini egalladi. Vazir, viloyat, muharrir, kotib, ma'ruza, matn, chipta, bekat, fuqaro, dastur, muhr, hakam, madhiya, rukn, foiz, favvora, hokim kabilar shular jumlasidandir.

Yangi qatlam. Tilda so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi qonuniy bo'lgani kabi, unda yangi so'zlarning yaratilishi ham tabiiy bir holdir. Tilda yangidan paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar yangi qatlamni tashkil etadi. Bunday so'zlar neologizmlar deb yuritiladi.

Tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi siljishlar, taraqqiyot bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyat rivoji, ob'ektiv borliq va tabiatdagi o'zgarishlar, kishilarda ilmiy, ma'naviy tafakkurning o'sib borishi yangi so'z va yangi atamalarga o'z-o'zidan ehtiyoj tug'diradi. Mana shu ehtiyoj asosida tilda yangi so'zlar vujudga keladi. Keyingi davrlarda istiqlool sharofati bilan respublikamizning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida bir qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar til leksikasida o'z aksini topdi. Leksikamiz qator yangi so'zlar hisobiga boyidi. Haftanoma, tahlilnoma, test, reyting, bakalavr, magistr, kollej, litsey, marketing, birja, menejer, aktsiya, sertifikat, supermarket, kontsern, korporatsiya kabilar bunga misoldir.

Neologizm tushunchasi o'ta nisbiydir. Neologizm tilda paydo bo'lib, bora-bora keng qo'llanishi natijasida yangilik bo'yog'ini yo'qotadi va neologizmlikdan chiqib, zamonaviy qatlamga o'tadi. Masalan, 20-30- yillarda mashina, traktor, kombayn, brigadir, zveno so'zlari neologik so'z hisoblangan. Hozir ular neologizm emas. Yoki 60- yillarda o'g'itlagich, purkagich, kosmos, kosmonavt, er sun'iy yo'ldoshi, televizor so'zlari neologizm bo'lgan bo'lsa ham, hozir ular tilga o'zlashib ketgan, yangilik xususiyatini yo'qotgan.

Neologizmlar paydo bo'lish doirasi, muhitiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) umumtil neologizmlari, 2) shaxsiy (individual) nutq neologizmlari.

Yangi so'z umumnutq doirasida bo'lsa, bular umumtil neologizmlari deyiladi: test, reyting, birja, menejer, yilnoma, internet kabilar umumtil neologizmlaridir.

Yozuvchilar, shoirlar, umuman yakka shaxslar tomonidan yaratilgan, ijod qilingan yangi so'zlar shaxsiy (individual) nutq neologizmlari deb yuritiladi. Masalan, G'.G'ulom asarlarida nursiramoq, kurashdosh, hamrang, yalovkash, sezim, damkash, uvadaband, daryodil, sharofobod, safarbasta, hijronzoda; M.Shayxzoda asarlarida mehnatdosh, oydosh, kalitlamoq, fazoshumul, tundalik, nuriston, salomobod, bemorxona, mehnatnoma neologizmlari uchraydi.

Bu tip so'zlar tilshunoslikda okkazonal (muvaqqat) so'zlar deb ham yuritiladi.

Okkazional soʻzlarning koʻpchiligi umumtil faktiga aylanmaydi. Bular maʼlum bir asar tilining oʻziga xos mulki hisoblanadi.

Neologizmlar uch usul asosida tilda paydo boʻladi: 1) boshqa tillardan soʻzlar qabul qilish natijasida (birja, reyting, bakalavr, fermer); 2) ichki imkoniyatlar asosida soʻzlar yasash natijasida (yilnoma, haftanoma, kitobsevar, oltintopar, navoiyxonlik, ayyubgʻulomxonlik); 3) mavjud soʻzlarni yangi maʼnoda qoʻllash natijasida (yoʻldosh – er yoʻldoshi, payvandchi – metallni ulovchi maʼnolarida) yuzaga keladi.

Savol va topshiriqlar.

1. Umumturkiy soʻzlar deb nimaga aytiladi?
2. Oʻzbekcha soʻzlar qanday yoʻllar bilan hosil qilinadi?
3. Oʻz qatlam soʻzlarining muhim belgilari haqida soʻzlang.
4. Oʻzlashgan qatlam deganda nimani tushunasiz?
5. Forscha – tojikcha soʻzlarga misollar keltiring.
6. Arabizmlarning oʻziga xos belgilari toʻgʻrisida gapiring.
7. Ruscha oʻzlashma soʻzlarni mavzuiy jihatdan qanday guruhlariga boʻlib oʻrganish mumkin?
8. Soʻz oʻzlashtirish yoʻllari va usullari haqida nimalarni bilasiz?
9. Ichki va tashqi manba xususida bilganlaringizni soʻzlab bering.
10. Tarixiylik nuqtai nazaridan tildagi leksik birliklar necha qatlamga boʻlib oʻrganiladi?
11. Zamonaviy qatlam deganda nimani tushunasiz?
12. Eski qatlamga oid soʻzlar qanday turlarga boʻlinadi?
13. Istorizm deb nimaga aytiladi? Ularga misollar keltiring.
14. Istorizmlar anglatgan maʼnosiga koʻra qanday guruhlariga boʻlib oʻrganiladi?
15. Arxaizm nima? Arxaizmga misollar ayting.
16. Arxaizm bilan istorizmlar oʻrtasida qanday farqlar mavjud?
17. Arxaizm va istorizmlardan nutqda qanday maqsadlarda foydalaniladi?
18. Yangi qatlam nima? Neologizmlarga misollar toping.
19. Neologizmlarning qanday turlarini bilasiz?
20. Yangi soʻzlar tilda qay yoʻsinda paydo boʻladi?
21. Mustaqillik sharoitida yangi paydo boʻlgan soʻzlarga misollar keltiring.

5-modul:Leksemalarning ishlatilish doirasi.

Reja:

1. Isteʼmol doirasi jihatidan oʻzbek tili leksikasi haqida umumiy maʼlumot.
2. Umumisteʼmoldagi soʻzlar va ularning turkum jihatidan turlari.
3. Isteʼmol doirasi cheklangan soʻzlar.
4. Dialektizmlar va ularning turlari.
5. Ilmiy atamalar va kasb-hunarga oid soʻzlar.
6. Jargon va argolar.

Tayanch iboralar: umumisteʼmoldagi soʻzlar, isteʼmol doirasi chegaralangan soʻzlar, dialektal leksika, dialektizm, shevaga xos soʻz, leksik dialektizm, semantik dialektizm, fonetik dialektizm, grammatik dialektizm, terminologik leksika, atama, atamashunoslik, ilmiy atamalar, kasb-hunar leksikasi, professionalizm, jargon, argo.

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981.
4. Берматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.
6. www. ziyonet.uz.

Tilimiz lugʻat tarkibidagi soʻzlar ishlatilish, qoʻllanilish doirasi jihatidan avvalo ikki guruhga boʻlinadi: 1) umumiste'moldagi soʻzlar; 2) iste'mol doirasi chegaralangan soʻzlar.

Umumiste'moldagi soʻzlar. Hozirgi o'zbek tili leksik boyligining asosini umumiste'moldagi soʻzlar tashkil etadi. Bunday soʻzlar yoshi, kasbi, yashash joyi, madaniy saviyasidan qat'iy nazar o'zbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar uchun tushunarli boʻladi, nutqda keng tarzda ishlatiladi. Umumiste'moldagi soʻzlar kundalik turmushda zarur boʻladigan narsa, belgi, harakat nomlari kabilarni ifodalaydi. Osh, non, yoʻl, daryo, dehqon, yuz, ota, ona, uzoq, elak, ovqat, yaxshi, yomon, oq, qora, tez, sekin, kun, olmoq, bermiq, emiq, yotmoq, uxlamq, ishlamoq singarilar umumiste'moldagi soʻzlar jumlasiga kiradi.

Umumiste'moldagi soʻzlarning asosiy qismi oʻz qatlamga oid soʻzlardan iborat. Shu bilan birgalikda bunday soʻzlar tarkibida tojik tilidan (sabzavot, chorva, obroʻ, omad, dugona, dutor, xona), arab tilidan (maktab, kitob, machit, anhor, muomala, soat, oila, rais), rus tilidan (radio, televizor, stol, stul, magazin, kino, teatr, ruchka, jurnal) oʻzlashgan soʻzlar ham anchagina miqdorni tashkil etadi. Demak, umumiste'moldagi soʻzlar oʻz qatlamga oid soʻzlardan, shuningdek oʻzlashma soʻzlardan iborat boʻlishi mumkin.

Iste'mol doirasi chegaralangan soʻzlar. Tilimizdagi ayrim soʻzlarning iste'mol doirasi ma'lum jihatdan chegaralangan boʻladi. Qoʻllanilish doirasi chegaralangan bunday leksika ishlatilishi hududga koʻra, ishlatilishi kasb-hunarga qarab, ishlatilishi biror ijtimoiy guruhga nisbatan cheklangan boʻlishi mumkin. Xuddi shu nuqtai nazardan ushbu tur leksika chegaralanish xarakteriga qarab uch turga boʻlinadi: 1) dialektal leksika; 2) terminologik leksika; 3) jargon va argolar.

Dialektal leksika. Ishlatilishi hududga koʻra cheklangan soʻzlar dialektal leksikani tashkil etadi. Dialektal leksika ma'lum hududda yashaydigan barcha kishilar qoʻllaydigan, oʻsha erdagi aholi nutqiga xos boʻlgan soʻzlardir. Binobarin ma'lum bir lahja va shevalarga xos boʻlib, adabiy til leksikasiga kirmaydigan bunday soʻzlar dialektizmlar deyiladi. Misollar: Namangan shevasiga xos boʻlgan soʻzlar: joyish (uyning old qismi), dukort (qaychi), aba (ona), patinjon (pomidor), gudda (buyrak), yova (begona), olvali (olcha); Qoʻqon guruhi shevalariga xos boʻlgan soʻzlar: poʻp (choy qaynatadigan bak), poʻpchi (samovarchi), olamazon (oʻt, olovning gurullab yonishi), rovindik (choyshab), paymanchak (ariqdan suv oladigan maxsus joy), opchin (devor tagidan oʻtkaziladigan suv yoʻli), kulang (havoning aynishi), poychoʻkir (kirishimli, sodda), logʻar (eski), mosov (garang), uvdiq (lanj, boʻshashgan), qirpi (mugʻombir), saltisvoy (bolasiz ayol, xotin), xoʻpitmoq (choʻmilmoq) singarilar.

Dialektizmlar quyidagi turlarga boʻlinadi: 1) leksik dialektizmlar; 2) semantik dialektizmlar; 3) fonetik dialektizmlar; 4) grammatik dialektizmlar.

Dialektizmlarning soʻzlardagi koʻrinishi, soʻz doirasidagi turi leksik dialektizmlar deyiladi. Ular dialektizm – soʻz deb ham yuritiladi: beshaxa – panshaxa (Qarnoq), xalpa – otin, gʻoʻz – yongʻoq (Xorazm), doʻgʻov – sopol idish, dufarak – duradgor (Andijon), belqars – belbogʻ (Qashqadaryo), qiyar – bodring (Shovot), daskalla – barg kesadigan asbob (Qoʻqon), barang – kartoshka (Olmos), gʻoʻlung – oʻrik (Bogʻot), jejak – pakana (Sayram), hapaza – choʻmilmoq (Namangan), barakgirak – chovli (Samarqand), bugʻaq – bulutli havo (Qorakoʻl), kavash – noʻxat shoʻrak (Turkiston), jululi – qirgʻiy (Zomin), kalak – shoxsiz echki (Joʻsh) kabilar leksik dialektizmlarning yorqin namunasidir.

Yozilishi va talaffuzi bir xil boʻlgan ayni bir soʻz adabiy tilda ham, shevada ham boʻlishi mumkin. Lekin ular adabiy tilda va shevada boshqa-boshqa maʼnolarda qoʻllaniladi. Demak, biror soʻz adabiy tilda ham, shevada ham mavjud boʻlib, shevada adabiy tilda boʻlmagan maʼnosi

bilan qo'llansa, bunday so'zlar semantik dialektizmlar deyiladi. Masalan, adabiy tildagi lagan so'zi Samarqand shevasida tog'ora; eshik so'zi Andijon, Marg'ilon shevalarida hovli, uy; toza so'zi Xorazm shevasida yangi; dim so'zi juda ma'nolarida ishlatiladi. – Eshikdagilar tinchmi? (S.Ahmad) gapida eshik so'zi "hovli, uy" ma'nosi bilan semantik dialektizm bo'lib kelgan.

Adabiy tildagi so'zlarni sheva vakillari o'z shevalarining fonetik qonuniyatlariga amal qilgan holda talaffuz etadilar. Tovush o'zgarishi va talaffuziga uchragan bunday so'zlar fonetik dialektizmlar deyiladi: mayram (bayram), michicha (musicha), salqit (sarqit), lodon (nodon), mishiqlik (mushuk), choch (soch), sov (sog'), obchiqlik (olib chiq) kabilar. Qipchoq lahjasida y tovushi o'rniga j undoshining (yo'q-jo'q, yuz-juz, yo'l-jo'l, yo'ring-juring, yomon-jomon, yigirma-jigirma kabi), o'g'uz lahjasida adabiy tildagi k o'rnida g tovushining (ko'rish-go'rish, keldi-galdi, ko'mma-go'mma), t tovushi o'rnida d tovushining (tuz-duz, to'rt-do'rt, Turdi-Durdi, til - dil kabi) qo'llanilishi fonetik dialektizmlarni vujudga keltiradi.

Biror shevaning o'ziga xos grammatik shakllari grammatik dialektizmlar deyiladi. Adabiy tildagi "-miz" shaxs-son qo'shimchasi o'rnida Toshkent shevasida "-vuz" qo'shimchasining (boramiz-boravuz, kelamiz-kelavuz kabi), adabiy tildagi "-yapti" hozirgi zamon fe'li qo'shimchasi o'rnida Buxoro shevasida "-opti", Toshkent shevasida "-votti", Namangan shevasida "-utti" qo'shimchasining (kelyapti-kelopty, kelavotti-kelutti kabi), adabiy tildagi "-da" o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rnida Samarqand, Buxoro shevalarida "-ga" qo'shimchasining (magazinda-magazinga, urushda-urushga kabi) qo'llanishi grammatik dialektizmlar hisoblanadi. Qorinlar ham piyoz bo'lib to'xtabtu, nonushtani qaerga qilamiz, Shariyf? – Choyxonaga qilamiz (A.Qodiriy) gapida qaerga, choyxonaga so'zlari grammatik dialektizm bo'lib kelgan.

Dialektizmlar badiiy asarlarda ishlatiladi. Mualliflar voqea-hodisa ro'y bergan joyning ruhini berish, asar qahramonlarining nutqini xususiylashtirish uchun dialektizmlardan foydalanadilar. A.Qodiriy, S.Ayniy, Oybek, A.Qahhor, Said Ahmad, Mirmuhsin, O'.Hoshimov, O.Muxtorovlar asarlarida dialektizmlar o'rinli ishlatilgan. Misollar: Qishloq o'rtasidan ro'd o'tar edi (S.Ayniy). Men sizga inak sog'ishniyam o'rgataman, - dedi Rayhonbibi Oliyaga (O.Muxtorov). Yoshulli, saning qizing bunda galtilmagan (Mirmuhsin). Jo'ra muzday suvda yuvindi-da, ayvon qozig'idan surg'i olib artindi (Oybek). Keltirilgan misollarda ro'd dialektizmi – ariq, inak – sigir, yoshulli – oqsoqol, surg'i – sochiqlik ma'nolarida qo'llangan.

Dialektizmlar adabiy til leksikasini boyituvchi muhim ichki manbalardandir. Hozirda tilimizda qo'llanuvchi elvizak, dugona, jo'ra, elvagay, ko'pkari, zirbak, qirqim, to'l so'zlari asli shevalardan kirib kelgan.

2. Terminologik leksika. Iste'mol doirasi chegaralangan leksikaning ikkinchi katta bir guruhini terminologik leksika tashkil qiladi. Terminologik leksika kasb-hunarga oid so'zlar va ilmiy atamalar majmuidan iborat bo'ladi.

O'zbekiston hududida qadimdan kasb-hunar rivojlanib kelgan. Xalqimiz kulolchilik, kashtachilik, misgarlik, etikdo'zlik, zargarlik, duradgorlik, pichoqchilik, degrezlik, egarchilik, tunukaso'zlik, taqachilik, do'ppido'zlik kabi hunarmandchilik sohalari bilan shug'ullanib kelgan. Turli kasb tarmoqlari bilan mashg'ul bo'lish shu sohalarning o'ziga xos so'zlarining vujudga kelishiga, yaratilishiga sabab bo'lgan. Tilimiz kasb-hunarga oid so'zlarga nihoyatda boy. Kasb-hunar leksikasiga quyidagi sohalardan misollar keltirish mumkin: 1) temirchilik kasb-hunaridan: o'choq, otashdon, bozg'onchi, damgar, charxdor, charxkash, zo'g'ata, pesh, peshlash, tana, avra, to'ponchi, teruvgar, yog'lash, yog'lovchi, katta dam, kichik dam kabilar; 2) zargarlik kasb-hunaridan: tillaqosh, tillazulf, zebigardon, bo'yintumor, naychatumor, ko'kraktumor, quymauzok, anjirbaldoq, qashqarbaldoq, zirak, aravabaldoq, tangajevak, zulukzira, avg'oncha uzuk singarilar; 3) pichoqchilik leksikasidan: gulqalam (pichoqni guldor qilib bezashda ishlatiladigan asbob), kesindi (bir dona pichoq yasash uchun mo'ljallab kesilgan temir bo'lak), qirov (pichoqni charxlaganda tig'ining ikkinchi tomonga qayrilib qolgan ensiz, mayin qismi), qayirmapichoq (tig'i qayriladigan pichoq), qabzagirak (pichoqni qistirib turib, charxga tutiladigan asbob), yulduztamg'a (qushpichoq tig'ining yuziga tushiriladigan naqshning bir turi), qushpichoq (pichoq turlaridan biri), qayqi (tig'ining uchi orqasiga sal qayirib yasalgan pichoq

turi), qayirmapichoq (tig'i qayriladigan pichoq) singarilar.

Chegaralangan leksikaga oid so'zlarning yana bir guruhi ilmiy atamalardir. Ma'lum bir fan, san'at, texnikaga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ilmiy atamalar (terminlar) deyiladi. Mamlakatimizda fanning barcha sohalari har tomonlama taraqqiy etib bormoqda. Bu sohadagi o'sish, rivojlanish o'zbek tili leksikasini ilmiy atamalar bilan boyitmoqda. Har bir fan o'zining ilmiy atamalariga ega.

Ilmiy atamalarning yaratilishi, hosil qilinish yo'llari har xildir. Atamalar, birinchidan, oddiy muomaladagi so'zlardan yasaladi. Bunda oddiy muomaladagi so'zlar terminga xos xususiyat kasb etib, ma'lum fanning atamasiga aylanadi. Botanika sohasidagi gul, poya, ildiz, tomir; matematika sohasidagi chiziq, doira, asos, yuz, qo'shish, ayirish; anotomiya sohasidagi suyak, ichak, o'pka, jigar, qon terminlari shular jumlasiga kiradi. Ikkinchidan, ilmiy atamalar ona tilimizdagi so'z va qo'shimchalar yordamida termin yasash orqali vujudga keladi: bosim, uzgich, sig'im, birlik, uzoqlik kabilar. Uchinchidan, boshqa tillardagi terminlarni aynan olish yoki kalkalab o'zlashtirish vositasida atama hosil qilinadi: aksioma, koordinat, kompas, kislorod, meridian, materiya; chislovoe mnojestvo – sonlar to'plami, dekorativno'e rasteniya – manzarali o'simliklar, kvadratnoe uravnenie – kvadrat tenglama, zritel'naya os – ko'rish o'qi va boshqalar.

Tilimizda biror ijtimoiy guruh va to'dalar doirasida qo'llanuvchi so'zlar ham uchray turadi. Ular jargon va argolar tarzida talqin qilinadi. Yuqori tabaqa vakillarining yashirin, dabdabali so'zlari jargonlar deyiladi. O'tmishda yuqori tabaqa kishilari o'z niyatlarini oddiy xalqdan yashirish maqsadida jargonlardan foydalanar edilar. Husni mutlaq (xudo), ne'mati jannat (mahbuba, yor), olampanoh (podsho), farmoni oliy shon (podsho farmoni), arkoni davlat (podsho, amir), tavaqqush aylang (umid bilan kuting), shoe qiling (bildiring), rijo va tamanno etaman (shunday qilishni so'rayman), tanzin deng (foйда deng) singari so'z va iboralar jargonlarga misol bo'la oladi.

Sayoq sozandalar, o'g'rilar, bezorilarning yashirin so'zlari argolar deb yuritiladi. Bunday so'zlar keng xalq ommasi uchun tushunarli bo'lmaydi. Masalan, otarchilar argosiga otar (to'y), otarkas (to'y egasi), ocharchi (to'yni olib boruvchi), danap (o'yinchi xotin), yakan (pul), so'kichak (otarchilarni to'yga olib boruvchi mashina), so'kichakchi (shofyor), noyi, udak (to'yni to'xtatish) kabilarni; o'g'rilar, bezorilar argosiga deg'o (begona), harif (dushman), shabas (menga berib yubor), bedana (to'pponcha), loy (pul), ligavi (militsiya), zamri (jim tur), atanda (qoch) singarilarni misol qilib keltirish mumkin.

Jargon va argolar ko'pincha o'tkinchi bo'ladi. To'da va guruhlarining tarqalib ketishi yoki tugashi bilan jargon va argolar ham unutiladi.

Savol va topshiriqlar.

1. Lug'at tarkibidagi so'zlar ishlatilish, qo'llanilish doirasi jihatidan necha guruhga bo'lib o'rganiladi?
2. Umumiste'moldagi so'zlar deb nimaga aytiladi?
3. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika deganda nimani tushunasiz?
4. Dialektal leksikaga tavsif bering.
5. Shevaga xos so'zlarga turli shevalardan misollar keltiring.
6. Dialektizmning qanday turlarini bilasiz?
7. Dialektizmlarning badiiy asarlarda ishlatilishiga misollar ayting.
8. Terminologik leksika atamasiga izoh bering.
9. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlariga oid atamalarga misollar toping va uni izohlang.
10. Ilmiy atamalar qanday yo'llar bilan yaratiladi, hosil qilinadi?
11. Kasb-hunar leksikasi nima?
12. Kasb-hunarga oid so'zlarga turli sohalardan misollar keltiring.
13. Jargon va argolar haqida ma'lumot bering.

6-modul: O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlikka munosabati.

Reja:

1. Hissiy bo'yoqsiz va hissiy bo'yoqdor so'zlar.
2. Hissiy bo'yoqdor so'zlarning yuzaga kelishi yo'llari.
3. So'zarda uslubiy xoslanish. Uslublararo so'zar va ularning so'z turkumlari jihatidan turlari.
4. Uslubiy xoslangan so'zar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch iboralar: hissiy bo'yoq, hissiy bo'yoqdor so'zlar, hissiy bo'yoqsiz so'zlar, ijobiy hissiy bo'yoq, salbiy hissiy bo'yoq, uslub, uslublararo so'zar, uslubiy xoslangan so'zar, badiiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub, rasmiy uslub, og'zaki so'zlashuv uslubi, poetik so'z (poetizm).

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.
4. Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари –Т.: Фан, 1985.
5. Абдуллаева А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. –Т.: Фан, 1983.
6. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. –Т.: Фан, 1981.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlar so'zlovchining turli his-tuyg'ulari, kechinmalarini ifodalash xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) hissiy buyoqsiz so'zlar; 2) hissiy buyoqdor so'zlar.

Hissiy buyoqsiz so'zlar ma'lum narsa, belgi, harakat haqidagi tushunchani ifoda qiladi, leksik ma'noga ega bo'ladi, lekin ular so'zlovchining turlicha munosabatini bildiruvchi qo'shimcha ottenkaga ega bo'lmaydi. Er, non, tog', joy, kitob, husn, katta, ko'k, bormoq, etmoq, ko'karmoq, ishlamoq singarilar hissiy buyoqsiz so'zlardir.

Hissiy bo'yoqdor so'zlar leksik ma'no bilan birga so'zlovchining ma'nosi anglashilayotgan narsa, belgi, harakatga bahosini, turlicha munosabatini ham ifodalaydi. Chehra, tabassum, miriqmoq, do'mboq, momoqaymoq, badbashara, pismiqlik, kalla, bashara so'zlari hissiy buyoqdor so'zlar sanaladi.

Hissiy bo'yoqdor so'zar voqea-hodisalarga so'zlovchining ob'ektiv munosabatini ifodalash nuqtai nazaridan ikki guruhga ajratiladi: 1) ijobiy hissiy bo'yoqdor so'zlar; 2) salbiy hissiy bo'yoqdor so'zlar.

Ijobiy hissiy bo'yoqdor so'zlar suyish, erkalash, hurmatlash singari ma'nolarni ifodalaydi. Bularga lo'bar, tanti, suluv, go'zal, alomat, do'ndirmoq, onajon, kenjatoy, dilbar, tamtam, toyloq so'zarini kiritish mumkin. U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi (M.Ismoilov). Ona bolasini bag'riga bosdi. Terlab tuproqqa qorishgan yuzlaridan o'par, yig'lar edi. Oh, bolaginam, bolaginam (S.Ahmad).

Salbiy hissiy bo'yoqdor so'zlar mensimaslik, nafratlanish, g'azab, kinoya, mazax, kamsitish, haqoratlash singari ma'nolarni bildiradi. Bularga kalla, lapashang, naynov, pismiqlik, bashara, irjaymoq, sanqimoq, likillamoq, vaysamoq, valdiramoq, satang, merov, chaqchaymoq, sulloh, jirillamoq so'zlari misol bo'la oladi. Ie, nega jirillaysan? Seni obketaman deya yotganim yo'q-ku (O'.Hoshimov). Marat iljayib uning so'zlarini ma'qulladi (S.Abdugahhor).

Hissiy bo'yoqdor so'zlar 4 xil yo'l bilan: 1) s'yzning o'zi bilan; 2) affikslar bilan; 3) so'zni metoforik qo'llash bilan; 4) kontekst yordamida ifoda qilinadi.

Birinchi usulda hissiy bo'yoq so'z negizining o'zi bilan ifodalanadi. So'zning o'z leksik ma'nosida aslan baholash elementi mavjud bo'ladi. Suluv, sohibjamol, jilmaymoq, bashara, turq, pismiqlik, satang so'zlarida hissiy bo'yoq shu yo'l bilan hosil qilingan.

Hissiy bo'yoq affiksatsiya usuli bilan ifodalanganda so'zga –cha, -xon, -jon, -gina, -loq, -chak, -toy singari qo'shimchalar qo'shiladi. Bunday qo'shimchalar erkalash, kichraytirish, ardoqlash, hurmat, e'zozlash singari ma'nolarni bildiradi. Bunday affiksli so'zlarda ijobiy munosabat anglashiladi: onaxon, dadajon, ayajon, qizgina, bolagina, toyloq, do'ndiqqina, kelinchak, erkato'y, kenjatoy kabilar. Munchalar shirinsiz, o'zimning oyijonginam, munchalar shirinsiz (S.Karomatov). Hammasi taxt, ayajon. Uy ham, ovqat ham bor (S.Ahmad). Alla aytay mehr bilan, uxlab qol, qo'zichog'im (folklor). Ha, etim toylog'im, qaysi go'rlarda besaru somon yo'qolib ketding (G'.G'ulom).

- cha affiksli oyimcha, xonimcha, do'ndiqcha, jononcha singari so'zlarda kinoya, kesatiq ma'nolari ham anglashishi mumkin. Ha, xonimcha, siz ham xo'jayinning yonini olasiz-da-a? (H.G'ulom).

So'zarda uslubiy xoslanish. Lug'at tarkibidagi so'zlar nutqqa, uslubga bo'lgan munosabatlariga ko'ra o'zaro farqlanadilar. Ma'lum bir so'zlar uslubga nisbatan betaraf munosabatda bo'lsa, ayrim so'zlar nutq uslubining biror turiga xos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan leksikadagi so'zlar ikki turga bo'linadi: 1) uslublararo so'zar (uslubga nisbatan betaraf bo'lgan so'zlar); 2) uslubiy xoslangan so'zar.

Barcha nutq uslublarida birdek qo'llanaveradigan so'zlar uslublararo so'zar deyiladi. Bunday so'zarda uslubning biror turiga mansublik belgisi bo'lmaydi. Ular umumleksikaning asosini tashkil etadi. Suv, daraxt, tog', o'rmon, ko'z, quloq, tosh, g'alaba, bahor, daryo, tun, kun, ishonch, ikki, uch, besh, o'n, ming, katta, ulkan, hamma, qanday, tez, mo'l, uxlamog, gapirmog, ichmog kabilar uslubga nisbatan betaraf bo'lgan so'zardir.

Ma'lum bir nutq uslubiga oid bo'lgan, qo'llanishi asosan shu uslub doirasi bilan chegaralangan so'zlar uslubiy xoslangan so'zar deyiladi. Uslubiy xoslangan so'zar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) badiiy uslubga xoslangan so'zar; 2) ilmiy uslubga xoslangan so'zar; 3) publitsistik uslubga xoslangan so'zar; 4) rasmiy ish uslubiga xoslangan so'zar; 5) so'zlashuv uslubiga xoslangan so'zar.

Badiiy uslubga xoslangan so'zar rang-barang bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bu uslubga xos so'zlar orasida she'riy nutqda qo'llanuvchi poetik so'zlar alohida o'rin egallaydi. Poetik so'zlar badiiy ta'sirchanlikni, obrazlilikni, tantanavorlikni, ko'tarinkilikni oshirish uchun xizmat qiladi. Poetik so'zlarga G'.G'ulom asarlarida uchraydigan mohro'y, eldosh, lolagun, lojuvard, charog'bon, arg'umog, munis, shafaq, gulgun, sarin, bashar, daryodil, mahbub, charog' so'zlarini; Oybek asarlarida qo'llangan malak, nechun, hayxot, abad, farah, yog'du, nogahon, zarrin, ummon, sunbul, samo, hajr so'zlarini; H.Olimjon asarlarida uchrovchi yanglig', uzra, shuur, misli, nechun, tug'yon, bahoriy, jilvagar, malak, ichra, xotirot, otash, netmak so'zlarini; E.Vohidov asarlarida qayd qilingan nigoh, nido, hilol, falak, siyna, hargiz, rangin, surur, sarfaro, nigoron, parivash, osuda, qamar, samovot, mohitabon, ishvanoz, dilband, ufurmog, g'amguzor so'zlarini; A.Oripov asarlarida ishlatilgan xilqat, pokdomon, purviqor, mahvash, sargashta, og'ush, shukrona, beshak, samoviy, nasim, sarbaland, nisor, nechuk, soniya, poydor, sharora, turfa, yovqur singarilar misol bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan poetik so'zlarning aksariyati hozirgi jonli nutqda ishlatilmaydi. Ular asosan poetik nutqda qo'llanishga xoslangan.

Ilmiy uslubga xoslangan so'zar ma'lum bir fan, texnikaga oid tushunchalarni ifodalovchi atamalardan iborat bo'ladi. Atamalar ilmiy uslubning asosini tashkil qiladi. Bunday so'zar ko'p hollarda tor doiradagi mutaxassislarga tushunarli bo'ladi. Ilmiy uslubga xoslangan so'zar jumlasiga tenglama, uchburchak, kvadrat, kub (matematika atamaları), ega, kesim, s'yz, semema, morfologiya, aniqllovchi (tilshunoslik atamaları), ekvator, meridian, kompas, xarita (geografiya atamaları), oqsil, ishqor, simob (ximiya atamaları), temperatura, jism, magnit, bug'lanish, bosim (fizika atamaları), qofiya, vazn, she'r, turoq, tuyuq (adabiyotshunoslik atamaları) kabilarni kiritish mumkin.

Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan bosh maqolalar, murojaatnomalar, chaqiriqlar publitsistik uslub asosida yoziladi. Publitsistik uslub o'ziga xos maxsus so'zlarga ega. Qardoshlik, jamiyat, do'stlik, mehnat, zafar, huquq, oila, ittifoq, zarbdor,

shior, davlat, musobaqa, sarlavha, ilg'or, ozodlik, baxt, konstitutsiya, mustaqillik, demokratiya, maqola singarilar publitsistik uslubga xoslangan so'zardir.

Rasmiy ish uslubi rasmiy-ma'muriy sohaga oid bo'ladi. Hukumat idoralarining qarorlari, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lon va xabarlar, shuningdek, ariza, tilxat, ma'lumotnoma, guvohnomalar rasmiy ish uslubida yoziladi. Rasmiy ish uslubiga xoslangan so'zarga qaror, buyruq, majlis bayoni (protokol), talabnoma, modda, tashkilot, ariza, akt, shartnoma singarilar kiradi.

So'zlashuv uslubiga xoslangan so'zar oddiy, erkin muomalada qo'llaniladigan so'zlardan tashkil topadi. Bunday so'zar u yoki bu darajada adabiy til me'yorlariga to'la mos kelmaydigan fonetik, grammatik xususiyatlarga ega bo'ladi. Ketvorgan, po'rim, papalamoq, to'zim, lekigin, o'ng'ay, jichcha, boyoqish, mullajiring, o'lguday, ketdi-vordi, palakat, bevosh, bundaqa, axiyri, dalig'uli, ja, burnog'i, hali-hozir, asti, valakisalang, jillaqursa, o'lmang, yashang, o'lib-tirilib so'zlari so'zlashuv uslubiga xoslangan so'zar hisoblanadi. Misollar: O'lmang, juda tadbirli odamsiz-da! (Yashin). Biz tomonlarga kelganingiz esa zap yaxshi ish bo'ldi-da! (so'zlashuvdan). Tomorqadagi bir qator shaftolilarni silkib qoqadi-da, daraxtlar ostida cho'qqayib o'tirib, o'lguday eydi (Oybek).

So'zlashuv uslubiga xoslangan so'zarning ancha qismi hissiy bo'yoqqa ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Savol va topshiriqlar.

1. Hissiy bo'yoq nima?
2. Hissiy bo'yoqdor so'zlar deb qanday so'zlarga aytiladi?
3. Ijobiy hissiy bo'yoqdor so'zlarga misollar keltiring.
4. Salbiy hissiy bo'yoqdor so'zlar deganda nimani tushunasiz?
5. Hissiy bo'yoqdor so'zlar qaysi yo'llar bilan hosil qilinadi?
6. Nutqning qanday uslublari bor?
7. Lug'at tarkibidagi so'zlar nutqqa, uslubga bo'lgan munosabatlariga ko'ra necha turga bo'lib o'rganiladi?
8. Uslubga nisbatan betaraf (neytral) leksikaga tavsif bering.
9. Uslubiy xoslangan so'zlar deb nimaga aytiladi?
10. Uslubiy xoslangan so'zar qanday turlarga bo'linadi?
11. Badiiy uslubga oid so'zlar (poetizmlar)ga misollar ayting.
12. Ilmiy va publitsistik uslub va ularga oid so'zar haqida so'zlang.
13. Og'zaki so'zlashuv uslubiga xos so'zarga misollar keltiring.
14. Badiiy uslubga xoslangan so'zar boshqa so'zlardan nimasi bilan farq qiladi?
15. Qanday uslubga rasmiy uslub deyiladi?
16. Rasmiy ish uslubiga xoslangan so'zarga misollar ayting.

7-modul: O'zbek tili frazeologiyasi

Reja:

1. Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot.
2. Iboraning semantik tarkibi.
3. Frazeologizmlarning turlari.
4. Iboralarda variantlanish.
5. Frazeologik polisemiya.
6. Frazeologizmlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Tayanch iboralar: frazeologiya, frazeologizm, ibora, turg'un ibora, semantik tarkib, frazeologik ma'no, qo'shimcha ottenka, hissiy bo'yoq, uslubiy belgi, frazeologik birlashma, frazeologik chatishma, frazeologik variantlar, leksik variant, grammatik variant, frazeologik

polisemiya, frazeologik omonimiya, omoibora, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya.

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.

Tilning lug'at tarkibida so'zlardan tashqari gap otmoq, sirkasi suv ko'tarmaydigan, og'zi qulog'ida, boshi osmonga etdi, mum tishlamoq, misi chiqdi, arpasini xom o'rmoq, terisiga somon tiqmoq, ko'z qirini tashlamoq, temirni qizig'ida bosmoq kabi turg'un bo'lib qolgan talay iboralar ham bor. Bunday iboralar frazeologizmlar nomi bilan yuritiladi. So'zlar leksik birlik, iboralar esa frazeologik birlik sanaladi. Tilshunoslikning ana shu frazeologik birliklarni o'rganuvchi va ilmiy tadqiq etuvchi sohasi frazeologiya deyiladi.

Frazeologizmlar kamida ikkita mustaqil suzdan tarkib topadi. Ular bir butun holda ko'chma ma'no ifoda qiladi. Masalan, anqoning urug'i, dunyodan o'tmoq, daqyonusdan qolgan, joni chiqdi, ko'z tashlamoq, ko'ngli keng iboralari ikki suzdan; og'zida qatiq ivitmoq, og'zi qulog'iga etdi, o'tqizgani joy topolmaslik, qo'ltig'idan tarvuzi tushmoq iboralari uch suzdan; bir yoqadan bosh chiqarmoq, to'nini teskari kiyib olmoq, bir yostiqa bosh qo'ymoq iboralari to'rt suzdan; sichqonning ini ming tanga bo'lmoq, ishi bitguncha, eshagi loydan o'tguncha iboralari besh suzdan tarkib topgan. Demak, ikki yoki undan ortiq suzdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi frazeologizm yoki ibora deb aytiladi.

Frazeologizmlar til birligidir. Ular nutq jarayonidan ancha oldin yuzaga kelganligi, bir qolipda qo'llanishi, binobarin tilda tayyor holda bo'lishligi bilan nutq birligi bo'lgan so'z birikmasi va gaplardan farq qiladi.

Frazeologizmlarning grammatik qurilishi o'ziga xos. Ibora komponentlari sintaktik jihatdan har xil yo'llar bilan bog'langan. Frazeologik iboralarning ko'pchilik qismi birikmaga teng iboralardir. Bundan tashqari, gapga teng qurilishli iboralar ham anchaginani tashkil etadi. Demak, iboralar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) birikmaga teng iboralar: katta og'iz, ochiq ko'ngil, ko'nglini ko'tarmoq, bir shingil, ketidan tushmoq, katta gapirmoq, eng shimarmoq, dunyodan o'tmoq, burnini ko'tarmoq, anqoning urug'i, ammamning buzog'i, arpasini xom o'rmoq, ko'nglini topmoq, shamolga uchmoq, chuchvarani xom sanamoq kabilar; 2) gapga teng iboralar: yuzi yorug', boshi osmonga etdi, ko'ngli ochiq, kapalagi uchib ketdi, xafsalasi pir bo'ldi, yuragi siqildi, ko'zi to'rt bo'ldi, ta'bi tirriq bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi, nafasi ichiga tushib ketdi, ko'ngli sovidi, ko'ngli to'q bo'ldi, sevinchi yuragiga sig'maydi, qo'ltig'idan tarvuzi tushdi, g'ashi keldi kabilar.

Iboralar yaxlit holda bir ma'no ifoda etganligi, komponentlari ajralmas holda bo'lganligi uchun gapda bitta sintaktik vazifada keladi. Iboraning semantik tarkibi. Iboraning semantik tarkibi ikki hodisani – frazeologik ma'no va qo'shimcha ottenkani qamrab oladi. Frazeologizmlarning nimanidir nomlashi, ifodalashi, ya'ni belgi, harakat kabilar haqidagi ma'lumoti frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, ammamning buzog'i iborasi “lapashang, landavur” ma'nosini ifodalab belgini, boshi osmonga etdi iborasi “xursand bo'lmoq” ma'nosini bildirib harakatni bildiradi: Bektemirdan ko'nglim to'q, - dedi Ali tajang, - kallasi ishlaydi. Ammo Safar cho'tir – u ham qo'r'oq, ham ammamning buzog'i (Oybek). O'z kishilarini tanimagani qiziq. Yo'qlab kelibsan boshim osmonga etdi (A.Muxtor).

Frazeologik birliklarda iboradan yaxlitligicha anglashiladigan ma'no bilan tarkibidagi so'zlar anglatadigan leksik ma'nolar orasidagi munosabat turlicha yo'sindadir.

Ayrim iboralarda iboraning ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'ladi. Iboraning ma'nosini uning tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlash mumkin bo'ladi.

Tarkibidagi soʻzlarga xos leksik maʼnolar qisman boʻlsa-da, hisobga olinadi. Bunday iboralar frazeologik birlashmalar deb yuritiladi. Iboraning yaxlit maʼnosi fonida tarkibidagi soʻzlarga xos maʼnolar ham sezilib turgani sababli bunday iboralarining maʼnosi koʻp qirrali, boy boʻladi. Toʻydan ilgari nogʻora chalmoq, yogʻ tushsa yalaguday, katta ogʻiz, beli ogʻriydi, eng shimarmoq, mum tishlamoq, er bilan osmoncha, oq koʻngil, kechani kecha, kunduzni kunduz demay, kayfi uchib ketdi, qovogʻidan qor yogʻdi, ogʻzi qulogʻida, tepa sochi tikka boʻlmoq, koʻz yummoq, tepsa tebranmas, oralaridan qil oʻtmaydi, xamirdan qil sugʻurganday, aravani quruq olib qochmoq, qildan qiyiq axtarmoq, koʻnglida kiri yoʻq, yulduzni benarvon uradigan, doʻppisini osmonga otmoq iboralarida shunday xususiyat mavjuddir.

Iboralarning yana bir guruhi borki, bularda iboraning maʼnosi tarkibidagi soʻzlarning maʼnosiga bogʻliq boʻlmaydi. Iboraning maʼnosi tarkibidagi soʻzlarga xos maʼnolar asosida izohlanmaydi, iboralardan anglashiladigan maʼnoni tushunishda qandaydir shartlilik mavjud boʻladi. Bunday iboralar frazeologik chatishmalar deyiladi. Ularga toʻnini teskari kiymoq, qoʻlini yuvib qoʻltigʻiga artmoq, oʻpkasini qoʻltiqlamoq, oyogʻini qoʻliga olib kelmoq, boshini olib ketmoq, suyagi yoʻq, oʻtakasi yorildi, koʻzimning yogʻini eb, qilni qirqqa yoradigan, qoʻltigʻidan tarvuzi tushdi iboralarini kiritish mumkin. Mazkur iboralarda iboradan anglashilgan maʼno shu ibora tarkibidagi soʻzlarning maʼnolaridan uzoqlashgan yoki bu maʼnolar tamoman hisobga olinmagan. Misollar: Bir majlisda Bekniyoz uni: “Zanglab qolayapsiz, Boqijon aka”, - deb tanqid qildi. Shu boʻldi-yu, Boqijon aka toʻnini teskari kiyib oldi (S.Abduqahhor). Sizda vijdon degan narsa yoʻq! koʻzimning yogʻini eb, boshimga ish tushganda qochdingiz (S.Ahmad). Ha, shunday edim, yorugʻ dunyodan qoʻlni yuvib, qoʻltiqqa urgan vaqtlarim boʻlgan edi (A.Muxtor). Ovchi uzoqdan oʻpkasini qoʻltiqlab chopib keldi (Xalq ertaklaridan). Xotirjam boʻling, boy. Qodirqul dodhoning bundaqangi ishlarga suyagi yoʻq (Hamza). Haligi xayoli chipakka chiqqanini koʻrib, xolaning tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi (S.Anorboev).

Iboralarning semantik tarkibida frazeologik maʼnodan tashqari qoʻshimcha ottenka ham mavjud boʻladi. Qoʻshimcha ottenka hissiy boʻyoq va uslubiy belgidan iboratdir.

Hissiy boʻyoq iboralarda voqelikni baholash, unga munosabat bildirish orqali roʻyobga chiqadi. Masalan, er-u koʻkka ishonmaslik (“ardoqlamoq”), boshiga koʻtarmoq (“yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq”), koʻli ochiq (“saxiy”), bel bogʻlamoq (“ahd qilmoq”) iboralarida ijobiy munosabat, tumshugʻini tiqmoq (“aralashmoq”), ogʻzi katta (“soxta kibr-havoli, maqtanishni yaxshi koʻradigan”).

Iboralardagi khp maonolilik. Birdan ortiq maʼnoni anglata olish frazeologik birliklarga ham xos xususiyatdir. Iboralarning talay qismi koʻp maʼnolidir. Masalan, boʻyniga olmoq iborasi uch maʼnoni anglatadi: 1) “eʼtirof qilmoq”, 2) “biror holatga rozi boʻlmoq, koʻnmoq”, 3) “biror ishni bajarishga rahbatlanmoq, biror ishni bajarishga masʼul boʻlmoq”. Misollar: 1. Saidova hamma gapni boʻyniga oldi (H.Noʻmon.), 2. Hamon musofirchilikni boʻyningga oldingmi, egardan sal tushgin-da! (H.Nazir). 3. Yoshlar kanal qazishga ajratilgan kishilarning chopiq normalarini bajarishni boʻyinlariga olibdilar (S.Nazar).

Koʻp maʼnoli iborada uning maʼnolari asosan biri ikkinchisidan oʻsib chiqqan boʻladi. Masalan, bel bogʻlamoq iborasi: 1) “shaylanmoq, otlanmoq”; 2) “astoydil kirishmoq”; 3) “ahd qilmoq” maʼnosini ifoda qiladi. Bunda maʼnolar oʻzaro birin-ketin bogʻlangan. Uchinchi maʼno ikkinchi maʼnodan, ikkinchi maʼno birinchisidan oʻsib chiqqan. Soʻz bermaslik iborasining: 1) “boshqalarga imkon bermay, nuqul oʻzi gapirmoq”; 2) “itoat qilmaslik, oʻz bilganicha ish tutmoq”; 3) “bahslashuvda yutib chiqishga qodir boʻlmoq” maʼnolari tarkibidagi keyingi ikki maʼnosi birinchi maʼno asosida yuzaga kelgan.

Koʻp maʼnoli iboralarning baʼzilarida uning maʼnolari biri ikkinchisidan oʻsib chiqmagan boʻladi, har biri oʻzicha shakllanadi. Masalan, ichagi uzildi iborasi ikki maʼnoli: 1) “kulgidan qotib qolmoq”, 2) “uzluksiz va qattiq yigʻlab charchamoq” (chaqaloqning). Bu maʼnolar oʻzaro bogʻlanmagan boʻlib, har bir maʼno asosida boshqa-boshqa voqelik yotadi.

Frazeologik omonimiya. Frazeologik birliklarda shaklan teng kelish hodisasi frazeologik omonimiya deb aytiladi. Bunda bir xil komponent (soʻz)lardan tuzilgan iboralar oʻzaro bogʻlangan holda tamoman boshqa-boshqa maʼnolarni ifodalaydi. Masalan, qoʻl koʻtarmoqI

(“urmoqchi bo`lmoq”) – qo`l ko`tarmoq II (“tarafdorligini, xayrixohligini bildirmoq”); boshiga ko`tarmoq I (“qattiq shovqin qilmoq”) – boshiga ko`tarmoq II (“yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq”); ko`z yummoq I (“ko`ra-bila turib e`tiborsiz qoldirmoq”) – ko`z yummoq II (“qazo qilmoq, o`lmoq”) iboralari o`zaro bir-biriga omonimdir.

Frazeologik sinonimiya. Ibora bilan iboraning ayni bir ma'noni anglatishi frazeologik sinonimiya deyiladi. Masalan, bir yoqadan bosh chiqarmoq va bir jon-bir tan bo`lmoq iboralari o`zaro bir-biriga sinonimdir. Bu iboralar shakl jihatdan har xil bo`lsa-da, lekin ayni bir ma'noni – “hamjihat bo`lmoq, yakdil bo`lmoq”ni anglatadi. Misollar: Bechoraning hech kimi yo`q, etim qiz edi. Ikki g`arib bir yoqadan bosh chiqargan edik (Oybek). Butun xalq bir tan-bir jon bo`lib mehnat qilayotgan mana shu kunlarda ayniqsa chuqur sezildi (P.Qodirov).

Frazeologik sinonimlar ma'no qirrasini jihatidan, nutqiy xoslanish jihatidan, hissiy bo`yog`i jihatidan o`zaro farqli xususiyatga ega bo`ladi. Masalan, achchig`i keldi - qoni qaynadi – g`azabga kelmoq – achchig`i qistadi iboralari bir umumiy ma'noni - “achchiqlanmoq” ma'nosini bildiradi, lekin bulardan qoni qaynadi iborasida ma'no boshqalarga nisbatan kuchliroq. Avjiga chiqmoq-avjiga minmoq – avjiga etmoq uyasida ma'no birinchisida uchinchisidan, ikkinchisida birinchisidan kuchli ifodalangan.

Frazeologik sinonimlar ma'lum bir nutq uslubiga xoslanganligi jihatidan ham o`zaro farq qilishi mumkin. Masalan, dunyodan o`tmoq-umr ko`rmoq – umr o`tkazmoq sinonimik uyasida birinchi ibora so`zlashuv nutqiga, ikkinchisi umumnutqqa, uchinchisi rasmiy nutqqa xos. “Lom-mim” demaslik – “churq” etmaslik uyasida birinchi umumnutqqa, ikkinchisi so`zlashuv nutqiga xoslangan.

Frazeologik sinonimlarning hissiy bo`yoqqa ko`ra farqlanishi oz bo`lsa-da, uchrab turadi. Masalan, bosh qo`shmoq – burnini suqmoq – bosh suqmoq sinonimik uyasi tarkibidagi burnini suqmoq iborasida salbiy munosabat boshqalardagiga nisbatan kuchli ifodalangan.

Bir uyaga birlashuvchi frazeologik sinonimlar nutqda oz-ko`p ishlatilishi jihatidan ham farqlanadi. Masalan, boshi ko`kka etdi – og`zi qulog`iga etdi – og`zining tanobi qochdi – terisiga sig`may ketdi – qo`yi mingtaga etdi sinonimik uyasida birinchi ibora 49 marta, ikkinchisi 19 marta, uchinchisi 9 marta, to`rtinchisi 8 marta, beshinchisi 1 marta qo`llangan. Bir og`iz – bir shingil – bir chimdim iboralarining nutqda uchrash nisbati shunday: 148 – 14 – 2.

Frazeologik antonimiya. Qarama-qarshi ma'noni bildiruvchi iboralar frazeologik antonimiya deyiladi: ko`kka ko`tarmoq – erga urmoq, yuragi tor – yuragi keng, ko`ngli oq – ichi qora, istarasi issiq – suxtasi sovuq kabi. Misollar: Menga choy uzatarkan, bozorni mingboshi ham ko`klarga ko`tardi (Sh.Rizo). Ular ham necha yil non-qatiq bo`lgan raislarini erga urdilar (Sh.Rashidov). Qo`yaver, uka, er-xotinlikda o`tadi. Ba'zi xotinlar yuragi torroq, g`ayirroq bo`ladi (H.Nazir). Hoy, nima gap o`zi, tinchlikmi, gapirsangiz-chi, muncha yuragingiz keng (R.Fayziy). “Salimboyvachchadan qilcha shubhalanmang, - qat`iy ravishda dedi Tantiboyvachcha, uning ko`ngli oq” (Oybek). Hali ichi qora dushman chiyondek bijib yotibdi (A.Muxtor). Bu istarasi issiqqina yigitni qaerda ko`rganligini eslay olmadi (N.Maqsudiy). Xumoxon yomon ko`radi shu so`xtasi sovuq Rahmonqulovni (A.Muxtor).

Savol va topshiriqlar.

1. Frazeologiya nimani o`rganadi?
2. Ibora deb nimaga aytiladi?
3. Frazeologizmlarning grammatik qurilishi haqida so`zlab bering.
4. Iboralarning gapdagi sintaktik vazifasi to`g`risida nimalarni bilasiz?
5. Iboraning semantik tarkibi deganda nimani tushunasiz?
6. Iboralardagi variantlanish haqida nimalarni bilasiz?
7. Frazeologik variantlar necha turga bo`linadi?
8. Frazeologik variantlarning miqdori haqida so`zlang.
9. Frazeologik birlashmaga ta'rif bering va misollar keltiring.
10. Frazeologik chatishma haqida fikrlaringizni bayon qiling.
11. Frazeologik polisemiya nima?

12. Polisemantik iboralar iboradagi ma'nolar miqdoriga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?
13. Frazеologik omonimiya hodisasini sharhlang.
14. Ikki iboraning bir-biriga omonim bo'lib kelishiga misollar ayting.
15. Frazеologik omonimiya bilan leksik omonimiya o'rtasida qanday farqlar bor?
16. Frazеologik sinonimiya nima?
17. Frazеologik sinonimlarga misollar keltiring.
18. Sinonimik munosabatda buluvchi iboralar miqdoriga ko'ra qanday turlarga bo'lib o'rganiladi?
19. Frazеologik sinonimiya bilan leksik sinonimiyaning farqi nimada?
20. Frazеologik antonimlar xususida gapiring.

8-modul:Leksikografiya.

Reja:

1. Lug'atshunoslik haqida umumiy ma'lumot.
2. Qomusi (entsiklopedik) lug'atlar va ularning turlari.
3. Bir tilli lug'atlar va ularning turlari.
4. Ikki tilli va ko'p tilli tarjima lug'atlarining o'ziga xos xususiyatlari va turlari.

Tayanch iboralar: *lug'atshunoslik, lug'atchilik, leksikografiya, entsiklopedik lug'at, lingvistik (til) lug'atlari, bir tilli lug'at, ikki tilli lug'at, ko'p tilli lug'at, umumiy lug'atlar, maxsus lug'atlar, izohli lug'at, imlo lug'ati, omonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati, frazeologik lug'at, atamalar lug'ati, etimologik lug'at, dialektologik lug'at, morfem lug'at, ters lug'at, chastotali lug'at, antroponimik lug'at, toponimik lug'at, paremiologik lug'at, tarjima lug'atlari.*

Adabiyotlar:

1. Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
2. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullaeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya. 2009.
3. Ўзбек тили лексикологияси. -Т.: Фан, 1981.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.
5. [www. ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz).

Lug'atshunoslik tilshunoslikning lug'at tuzish ishi bilan shug'ullanadigan maxsus bir sohasidir. Lug'atchilikning nazariy va amaliy tomonlari bor. Lug'at tuzishning ilmiy asoslari va tamoyillarini ishlab chiqish, lug'at tiplarini belgilash, uni yaratish usullarini asoslab berish bu sohaning nazariy masalalari bo'lib hisoblanadi. Tilning so'z boyligini to'plash, lug'at tuzish uchun kartotekalar tuzish va ularni tartibga solish kabilar lug'atshunoslikning amaliy tomonidir.

So'zlarning ma'lum bir maqsad asosida to'plangan va tartibga solingan hamda alfavit tartibida joylashtirilgan yig'indisi lug'at deyiladi. Lug'atlar kitob shaklida yoki boshqa shaklda (chunonchi, qo'lyozma shaklida) bo'lishi mumkin. Lug'atlar ma'lum bir tilning so'z boyligini aniqlashda, ularning ma'nolari va yozilishlarini ko'rsatib berishda, nutq madaniyatini ko'tarishda, umuman kishilarning madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Lug'atlarning turlari ko'p. Avvalo lug'atlar ikki asosiy tipga bo'linadi: entsiklopedik lug'atlar va lingvistik lug'atlar.

Entsiklopedik lug'atlarda so'zning o'zi yoki uning leksik ma'nosi, grammatik, uslubiy belgilari izohlanmaydi. Balki shu so'z bilan atalgan tushuncha (narsa, hodisa, shaxs kabilar) haqida ma'lumot beriladi. Darhaqiqat, entsiklopedik lug'atlar tushuncha lug'atlari bo'lib, bularda ishlab chiqarish, fan, texnika, adabiyot, san'at, tabiat, tibbiyot, jamiyat va hokazolarning barchasiga oid muhim tushunchalar izohlanadi, shuningdek, geografik nomlar, yirik fan va madaniyat arboblari – olimlar, yozuvchilar, shoirlar, san'atkorlar; davlat arboblari, mehnat qahramonlari haqida birmuncha to'liq ma'lumot berib o'tiladi.

Entsiklopedik lug'atlar ikki xil bo'ladi: 1) umumiy ensiklopedik lug'at va 2) biror sohaning ensiklopedik lug'ati. Umumiy ensiklopedik lug'at barcha sohani o'z ichiga qamrab oladi. Bunga 1971-1980 yillar davomida nashr etilgan 14 jildidan iborat "O'zbek ensiklopediyasi" misol bo'la oladi. So'nggi yillarda 12 jildga mo'ljallangan "O'zbek milliy ensiklopediyasi"ni yaratish ustida qizg'in ish olib borildi. Hozirgacha mazkur lug'atning 10 jildi nashrdan chiqarildi. Soha ensiklopediyalari faqat bir sohaga oid bo'ladi. Akademik T.Zohidovning 3 jildlik "Zoologiya ensiklopediyasi", Q.Zokirov, H.Jamolxonovlarning "Botanikadan ruscha-o'zbekcha ensiklopedik lug'at"i, shuningdek "Uy-ro'zg'or buyumlari ensiklopediyasi", "Salomatlik ensiklopediyasi", "Bolalar ensiklopediyasi" kabilarni soha ensiklopediyasiga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Lingvistik lug'atlar til lug'atlaridir. Lingvistik lug'atlarda asosiy e'tibor lug'aviy birliklarga qaratiladi va ular tilshunoslik nuqtai nazaridan har tomonlama izohlanadi.

Lug'atlar til leksikasidagi so'zlarni to'la qamrab olishi yoki til leksikasini ma'lum maqsadga ko'ra chegaralab aks ettirishi jihatidan ikki turga bo'linadi: 1) umumiy lug'atlar va 2) maxsus lug'atlar. Umumiy lug'atlarda tilning barcha leksikasi o'z aksini topadi. Izohli lug'at, imlo lug'ati, ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha lug'atlar umumiy lug'atlar sirasiga kiradi. Maxsus lug'atlar til leksikasining ma'lum bir qatlami asosida tuziladi. Bunday lug'atlarning so'zligi biror sohaga oid so'zlar bilan chegaralangan bo'ladi. Sinonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati, frazeologik lug'at, terminologik lug'at, omonimlar lug'ati, toponimik lug'atlar maxsus lug'atlardir.

Lingvistik lug'atlar bir yoki bir necha til materialiga asoslanishi jihatidan bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarga bo'linadi.

Bir tilli lug'atlar. Bir tilli lug'atlar o'z til lug'atlari deb ham yuritiladi. Bir tilli lug'atlarda so'z va iboralar bir tilda (masalan, o'zbek tilida) izohlanadi. Bunday lug'atlar turli maqsadlarni ko'zlagan holda tuziladi. Shu maqsad nuqtai nazaridan ular quyidagi turlarga bo'linadi: 1) izohli lug'at; 2) talaffuz (orfoepik) lug'ati; 3) imlo lug'ati; 4) sinonimlar lug'ati; 5) omonimlar lug'ati; 6) antonimlar lug'ati; 7) frazeologik lug'at; 8) terminologik lug'at; 9) etimologik lug'at; 10) dialektologik lug'at; 11) morfem lug'at; 12) ters lug'at; 13) chastotali lug'at; 14) antroponimik lug'at; 15) toponimik lug'at; 16) paremiologik lug'at.

Tildagi so'z va iboralarning ma'nolarini izohlab, ularning grammatik va uslubiy xususiyatlarini yoritib beruvchi lug'atga izohli lug'at deyiladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" mualliflar jamoasi tomonidan yaratilib, 1981 yilda Moskvada "Rus tili" nashriyoti tomonidan chop etilgan. Bu lug'at ikki jildidan iborat bo'lib, o'z ichiga 60 ming so'zni qamrab olgan. Lug'atning umumiy hajmi 250 bosma taboqdan iboratdir. Lug'at yirik tilshunos olim Zokir Ma'rufov tahriri ostida nashr qilingan.

Izohli lug'atning bosilib chiqqaniga ancha vaqt bo'ldi. Bu davrda tilning leksikasi yangi so'zlar bilan boyidi, semasiologiya, lug'at tuzish tamoyillari bo'yicha bir qator tadqiqotlar yaratildi. Bularning barchasi izohli lug'atning to'ldirilgan, qaytadan ishlangan nashrini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bois hozirda O'zRFA ning Til va adabiyot institutida o'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini yaratish borasida amaliy ish olib borilmoqda.

Tildagi so'zlarning mavjud imlo qoidalari asosida to'g'ri yozilishini ko'rsatib beruvchi lug'atga imlo lug'ati deyiladi. O'zbek tilida bir necha imlo lug'atlari yaratilgan. Bular jumlasiga Olim Usmonning "Imlo lug'ati" (1949), S.Ibrohimov va M.Rahmonovlarning "O'zbek adabiy tilining imlo lug'ati" va 1962 yilda chiqarilgan "O'zbek tilining qisqacha imlo lug'ati", S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ahmedovlarning "Fan" nashriyoti tomonidan 1976 yilda chop etilgan "O'zbek tilining imlo lug'ati"ni kiritish mumkin. Keyingi lug'at hajm jihatidan ancha katta bo'lib, u 65 ming so'zdan iboratdir. 1993 yildan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi joriy etila boshlandi. 1995 yilning 24-avgustida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" tasdiqlandi. Shular asosida Sh.Rahmatullaev va A.Hojievlar "O'zbek tilining imlo lug'ati"ni yaratdilar. Kitob "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan 1995 yilda 150 ming nusxada bosilib chiqdi. Imlo lug'atlari barcha uchun birdek ahamiyatlidir. Kishilarning savodxonligini oshirishda uning o'rni beqiyosdir.

Ikki tilli lugʻatlar. Ikki tilli lugʻatlarda biror tilga oid soʻz va iboralar boshqa tilga tarjima qilinadi. Shu bois bunday lugʻatlar tarjima lugʻatlari deb yuritiladi. Tarjima lugʻatlarining ikki tipi bor: 1) oʻz tildan oʻzga tilga tarjima lugʻatlari; 2) oʻzga tildan oʻz tilga tarjima lugʻatlari.

Oʻz tildan oʻzga tilga tarjima lugʻatlariga namuna sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin: “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat” (bosh muharrir- A.K.Borovkov, 1959), “Oʻzbekcha-nemischa lugʻat” (masʼul muharrir: S.Saidov, 1967), “Oʻzbekcha-inglizcha lugʻat” (tuzuvchilar: J.Boʻronov, Y.Aʼloev, K.Rahmonberdievlar, 1969), “Oʻzbekcha-nemischa oʻquv lugʻati” (tuzuvchilar: Ya.R.Benyaminov, S.S.Saidov), “Oʻzbekcha-arabcha soʻzlashgich” (B.Ibrohimov, 1995) va boshqalar.

Oʻzga tildan oʻz tilga tarjima lugʻatlari birmuncha koʻproq tuzilgan. Bunga professor V.V.Reshetovning “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” (1957), T.Aliqulovning “Ruscha-oʻzbekcha oʻquv lugʻati” (1982), Ya.R.Benyaminov va T.Z.Mirsoatovlarning “Nemischa-oʻzbekcha lugʻat” (1964), J.B.Boʻronov, X.R.Rahmonberdiev, X.S.Barnoxoʻjaeva, E.A.Anisomovlarning “Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat” (1968), T.Aliqulov, D.Bozorovalarning “Frantsuzcha-oʻzbekcha lugʻat” (1973), S.A.Rizaev, E.R.Roʻziqulovlarning “Ispancha-oʻzbekcha lugʻat” (1977), A.Rustamov, Q.Karimov, Z.Umarovlarning “Forscha-oʻzbekcha oʻquv lugʻati” (1975), E.Talabov, Q.Tashmetovlarning “Arabcha-oʻzbekcha lugʻat”i (1986) kabilar misol boʻla oladi.

Ikki tilli lugʻatlarning ichida eng koʻp tuzilgani oʻzbekcha-ruscha va ruscha-oʻzbekcha lugʻatlardir. Dastlab 1927 yilda K.K.Yudaxinning 9 ming soʻzli “Qisqacha oʻzbekcha-ruscha lugʻat”i nashr etildi. 1931 yilda U.Ahmadjonov, B.Ilyazovlarning 10 ming soʻzdan iborat “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”i bosilib chiqdi. 1941 yilda professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borovkovlarning umumiy tahriri ostida 17 ming soʻzni oʻz ichiga olgan “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”i chop qilindi. 1959 yilda bu tipdagi lugʻatning ancha mukammali yaratildi. A.K.Borovkov bosh muharrirlik qilgan bu lugʻat 40 ming soʻzdan iborat edi. 1988 yilda Oʻzbek entsiklopediyasi bosh redaksiyasi tomonidan “Oʻzbekcha-ruscha lugʻat”ning kengaytirilgan, toʻldirilgan nashri bosib chiqarildi. S.F.Akobirov va G.N.Mixaylovlar tahriri ostida chop etilgan bu lugʻatga 50 mingga yaqin soʻz va iboralar kiritilgan.

Oʻzbek lugʻatchiligi tarixida ruscha-oʻzbekcha lugʻatlar ham bir necha bor nashr etilgan. 1927 yilda Ashurali Zohiriyning “Ruscha-oʻzbekcha mukammal lugʻati” bosilib chiqdi. 1942 yilda professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borovkovlar masʼul muharrirligida 30 ming soʻzlikka ega boʻlgan “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” yaratildi. Eng yirik va mukammal “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” 1950-1955 yillar davomida nashr etildi. Besh jildidan iborat boʻlgan mazkur lugʻat oʻz ichiga 72 ming soʻzni qamrab olgan. 1983-1984 yillarda Oʻzbek entsiklopediyasi bosh redaksiyasi tomonidan ikki jildli “Ruscha-oʻzbekcha lugʻat” nashr qilindi. Birinchi jild 34650 soʻzdan, ikkinchi jild 32170 soʻzdan tarkib topgan.

Tarjima lugʻatlarining koʻpchiligini terminologik lugʻatlar tashkil etadi. Bunga namuna sifatida H.Hasanovning “Ruscha-oʻzbekcha, oʻzbekcha-ruscha geografıya terminlari lugʻati” (1964), N.Hotamov, B.Sarimsoqovlarning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati” (1983), A.Aʼzamov, E.Nazirovlarning “Atmosfera fizikasidan ruscha-oʻzbekcha terminlar lugʻati” (1972), Sh.Bayburova, N.Takanaevlarning “Pedagogikadan qisqacha ruscha-oʻzbekcha terminologiya lugʻati” (1963), O.Aminov, J.Doʻstmuhammedov, A.Usmonovlarning “Qisqacha ruscha-oʻzbekcha iqtisodiy terminlar lugʻati” (1971), Q.Z.Zokirov, M.M.Nabiev, Oʻ.Pratov, H.A.Jamolxonovlarning “Ruscha-oʻzbekcha botanika terminlarining izohli lugʻati” (1963) ni koʻrsatish mumkin.

Qayd qilingan lugʻatlar tarjima lugʻatlarining maxsus tipiga kiradi. Maxsus tipdagi bunday lugʻatlarga yana M.Sodiqovanning “Ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻat” (1972), A.P.Hojiev, S.L.Kimning “Uzbeksko-russkiy sinonimicheskiy slovar” (1990) lugʻatlari misol boʻladi.

Koʻp tilli lugʻatlar. Bunday lugʻatlarda uch va undan ortiq tillarning soʻzlari tarjima qilib beriladi. Koʻp tilli lugʻatlar oʻtmishda koʻp yaratilgan. M.Zamaxshariyning 1128-1143 yillarda yaratgan “Muqaddimat-ul adab” lugʻati arab-fors-chigʻatoy tillari asosida tuzilgan. Muhammad Yaʼqub Chingiyning “Kelurnoma” nomli lugʻati turkiy-chigʻatoycha-forscha soʻzlardan tashkil

topgan. Ishoqxonto`ra Ibratning “Sart tili lug`ati” deb nomlangan lug`atida o`zbekcha so`zlar rus, arab, fors, turk, hind tillariga tarjima qilib berilgan.

Ko`p tilli lug`atlar hozirgi paytda ham tuzilyapti. Lekin ularning asosiy qismi terminologik xarakterga egadir. Bunga A.A.Asqarov, H.Zohidovlarning “Lotincha-o`zbekcha-ruscha normal anotomiya lug`ati” (1964), M.I.Umarxo`jaev, Q.N.Nazarovlarning “Nemischa-ruscha-o`zbekcha frazeologik lug`at” (1994), D.Rashidova, M.N.Nigmatboevalarning “Nemischa-ruscha-o`zbekcha ijtimoiy-siyosiy lug`at”i, N.K.Ahmedov, Yu.A.Kulikovlarning “Anatomiya dan lotincha-o`zbekcha-ruscha lug`at” (1995), R.S.Sobirov, X.X.Xolmatov, V.Ch.Litvinenko, R.R.Sobirovlarning “Dorivor o`simliklarning lotincha-ruscha-o`zbekcha-arabcha-forscha lug`ati” (1989) ni misol qilib keltirish mumkin.

Xullas, lug`at-til xazinasidir. Tilning butun boyligi lug`atlarda namoyon bo`ladi. Lug`atlar kishilarning madaniy saviyasini oshirishda, boshqa tillarni o`rganishlarida alohida va muhim ahamiyat kasb etadi.

Lug`atlarda so`zlarni joylashtirish tartibi quyidagi uch tamoyilga tayanadi:

tashqi tartib;

ichki tartib;

maono tantibi; (semantik printsipl).

1.Tashqi tartib so`zning birinchi xarfiga – shu xarfning alifbodagi o`rniga qarab belgilanadi:

Arpa

Banoras

Gavda

Vazir

2.Ichki tartib so`zning birinchi xarfidan keyingi (ikkinchi, uchinchi va xokazo) xarflariga – shu xarflarning alifbodagi o`rniga qarab belgilanadi. Bu tartibga birinchi xarfi bir xil bo`lgan so`zlar-ni joylashtirishga amal qilinadi:

Lug`atshunoslik tilshunoslikning lug`at tuzish ishi bilan shug`ullanadigan maxsus bir sohasidir. Lug`atchilikning nazariy va amaliy tomonlari bor. Lug`at tuzishning ilmiy asoslari va tamoyillarini ishlab chiqish, lug`at tiplarini belgilash, uni yaratish usullarini asoslab berish bu sohaning nazariy masalalari bo`lib hisoblanadi. Tilning so`z boyligini to`plash, lug`at tuzish uchun kartotekalar tuzish va ularni tartibga solish kabilar lug`atshunoslikning amaliy tomonidir.

So`zlarning ma`lum bir maqsad asosida to`plangan va tartibga solingan hamda alfavit tartibida joylashtirilgan yig`indisi lug`at deyiladi. Lug`atlar kitob shaklida yoki boshqa shaklda (chunonchi, qo`lyozma shaklida) bo`lishi mumkin. Lug`atlar ma`lum bir tilning so`z boyligini aniqlashda, ularning ma`nolari va yozilishlarini ko`rsatib berishda, nutq madaniyatini ko`tarishda, umuman kishilarning madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Lug`atlarning turlari ko`p. Avvalo lug`atlar ikki asosiy tipga bo`linadi: entsiklopedik lug`atlar va lingvistik lug`atlar.

Entsiklopedik lug`atlarda so`zning o`zi yoki uning leksik ma`nosi, grammatik, uslubiy belgilari izohlanmaydi. Balki shu so`z bilan atalgan tushuncha (narsa, hodisa, shaxs kabilar) haqida ma`lumot beriladi. Darhaqiqat, entsiklopedik lug`atlar tushuncha lug`atlari bo`lib, bularda ishlab chiqarish, fan, texnika, adabiyot, san`at, tabiat, tibbiyot, jamiyat va hokazolarning barchasiga oid muhim tushunchalar izohlanadi, shuningdek, geografik nomlar, yirik fan va madaniyat arboblari – olimlar, yozuvchilar, shoirlar, san`atkorlar; davlat arboblari, mehnat qahramonlari haqida birmuncha to`liq ma`lumot berib o`tiladi.

Entsiklopedik lug`atlar ikki xil bo`ladi: 1) umumiy entsiklopedik lug`at va 2) biror sohaning entsiklopedik lug`ati. Umumiy entsiklopedik lug`at barcha sohani o`z ichiga qamrab oladi. Bunga 1971-1980 yillar davomida nashr etilgan 14 jildidan iborat “O`zbek entsiklopediyasi” misol bo`la oladi. So`nggi yillarda 12 jildga mo`ljallangan “O`zbek milliy entsiklopediyasi”ni yaratish ustida qizg`in ish olib borildi. Hozirgacha mazkur lug`atning 10 jildi nashrdan chiqarildi. Soha entsiklopediyalari faqat bir sohaga oid bo`ladi. Akademik T.Zohidovning 3 jildlik “Zoologiya entsiklopediyasi”, Q.Zokirov, H.Jamolxonovlarning

“Botanikadan ruscha-o‘zbekcha entsiklopedik lug‘at”i, shuningdek “Uy-ro‘zg‘or buyumlari entsiklopediyasi”, “Salomatlik entsiklopediyasi”, “Bolalar entsiklopediyasi” kabilarni soha entsiklopediyasiga misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Lingvistik lug‘atlar til lug‘atlaridir. Lingvistik lug‘atlarda asosiy e‘tibor lug‘aviy birliklarga qaratiladi va ular tilshunoslik nuqtai nazaridan har tomonlama izohlanadi.

Lug‘atlar til leksikasidagi so‘zlarni to‘la qamrab olishi yoki til leksikasini ma‘lum maqsadga ko‘ra chegaralab aks ettirishi jihatidan ikki turga bo‘linadi: 1) umumiy lug‘atlar va 2) maxsus lug‘atlar. Umumiy lug‘atlarda tilning barcha leksikasi o‘z aksini topadi. Izohli lug‘at, imlo lug‘ati, ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar umumiy lug‘atlar sirasiga kiradi. Maxsus lug‘atlar til leksikasining ma‘lum bir qatlamini asosida tuziladi. Bunday lug‘atlarning so‘zligi biror sohaga oid so‘zlar bilan chegaralangan bo‘ladi. Sinonimlar lug‘ati, antonimlar lug‘ati, frazeologik lug‘at, terminologik lug‘at, omonimlar lug‘ati, toponimik lug‘atlar maxsus lug‘atlardir.

Lingvistik lug‘atlar bir yoki bir necha til materialiga asoslanishi jihatidan bir tilli, ikki tilli va ko‘p tilli lug‘atlarga bo‘linadi.

Bir tilli lug‘atlar. Bir tilli lug‘atlar o‘z til lug‘atlari deb ham yuritiladi. Bir tilli lug‘atlarda so‘z va iboralar bir tilda (masalan, o‘zbek tilida) izohlanadi. Bunday lug‘atlar turli maqsadlarni ko‘zlagan holda tuziladi. Shu maqsad nuqtai nazaridan ular quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) izohli lug‘at; 2) talaffuz (orfoepik) lug‘ati; 3) imlo lug‘ati; 4) sinonimlar lug‘ati; 5) omonimlar lug‘ati; 6) antonimlar lug‘ati; 7) frazeologik lug‘at; 8) terminologik lug‘at; 9) etimologik lug‘at; 10) dialektologik lug‘at; 11) morfem lug‘at; 12) ters lug‘at; 13) chastotali lug‘at; 14) antroponimik lug‘at; 15) toponimik lug‘at; 16) paremiologik lug‘at.

Tildagi so‘z va iboralarning ma‘nolarini izohlab, ularning grammatik va uslubiy xususiyatlarini yoritib beruvchi lug‘atga izohli lug‘at deyiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” mualliflar jamoasi tomonidan yaratilib, 1981 yilda Moskvada “Rus tili” nashriyoti tomonidan chop etilgan. Bu lug‘at ikki jildidan iborat bo‘lib, o‘z ichiga 60 ming so‘zni qamrab olgan. Lug‘atning umumiy hajmi 250 bosma taboqdan iboratdir. Lug‘at yirik tilshunos olim Zokir Ma‘rufov tahriri ostida nashr qilingan.

Izohli lug‘atning bosilib chiqqaniga ancha vaqt bo‘ldi. Bu davrda tilning leksikasi yangi so‘zlar bilan boyidi, semasiologiya, lug‘at tuzish tamoyillari bo‘yicha bir qator tadqiqotlar yaratildi. Bularning barchasi izohli lug‘atning to‘ldirilgan, qaytadan ishlangan nashrini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bois hozirda O‘zRFA ning Til va adabiyot institutida o‘zbek tilining ko‘p jildli izohli lug‘atini yaratish borasida amaliy ish olib borilmoqda.

Tildagi so‘zlarning mavjud imlo qoidalari asosida to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatib beruvchi lug‘atga imlo lug‘ati deyiladi. O‘zbek tilida bir necha imlo lug‘atlari yaratilgan. Bular jumlasiga Olim Usmonning “Imlo lug‘ati” (1949), S.Ibrohimov va M.Rahmonovlarning “O‘zbek adabiy tilining imlo lug‘ati” va 1962 yilda chiqarilgan “O‘zbek tilining qisqacha imlo lug‘ati”, S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ahmedovlarning “Fan” nashriyoti tomonidan 1976 yilda chop etilgan “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”ni kiritish mumkin. Keyingi lug‘at hajm jihatidan ancha katta bo‘lib, u 65 ming so‘zdan iboratdir. 1993 yildan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi joriy etila boshlandi. 1995 yilning 24-avgustida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlandi. Shular asosida Sh.Rahmatullaev va A.Hojievlar “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”ni yaratdilar. Kitob “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan 1995 yilda 150 ming nusxada bosilib chiqdi. Imlo lug‘atlari barcha uchun birdek ahamiyatlidir. Kishilarning savodxonligini oshirishda uning o‘rni beqiyosdir.

Ikki tilli lug‘atlar. Ikki tilli lug‘atlarda biror tilga oid so‘z va iboralar boshqa tilga tarjima qilinadi. Shu bois bunday lug‘atlar tarjima lug‘atlari deb yuritiladi. Tarjima lug‘atlarining ikki tipi bor: 1) o‘z tildan o‘zga tilga tarjima lug‘atlari; 2) o‘zga tildan o‘z tilga tarjima lug‘atlari.

O‘z tildan o‘zga tilga tarjima lug‘atlariga namuna sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” (bosh muharrir- A.K.Borovkov, 1959), “O‘zbekcha-nemischa lug‘at” (mas‘ul muharrir: S.Saidov, 1967), “O‘zbekcha-inglizcha lug‘at” (tuzuvchilar: J.Bo‘ronov, Y.A‘loev, K.Rahmonberdievlar, 1969), “O‘zbekcha-nemischa o‘quv lug‘ati”

(tuzuvchilar: Ya.R.Benyaminov, S.S.Saidov), “O‘zbekcha-arabcha so‘zlashgich” (B.Ibrohimov, 1995) va boshqalar.

O‘zga tildan o‘z tilga tarjima lug‘atlari birmuncha ko‘proq tuzilgan. Bunga professor V.V.Reshetovning “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (1957), T.Aliqulovning “Ruscha-o‘zbekcha o‘quv lug‘ati” (1982), Ya.R.Benyaminov va T.Z.Mirsoatovlarning “Nemischa-o‘zbekcha lug‘at” (1964), J.B.Bo‘ronov, X.R.Rahmonberdiev, X.S.Barnoxo‘jaeva, E.A.Anisomovlarning “Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at” (1968), T.Aliqulov, D.Bozorovalarning “Frantsuzcha-o‘zbekcha lug‘at” (1973), S.A.Rizaev, E.R.Ro‘ziqulovlarning “Ispancha-o‘zbekcha lug‘at” (1977), A.Rustamov, Q.Karimov, Z.Umarovlarning “Forscha-o‘zbekcha o‘quv lug‘ati” (1975), E.Talabov, Q.Tashmetovlarning “Arabcha-o‘zbekcha lug‘at”i (1986) kabilar misol bo‘la oladi.

Ikki tilli lug‘atlarning ichida eng ko‘p tuzilgani o‘zbekcha-ruscha va ruscha-o‘zbekcha lug‘atlardir. Dastlab 1927 yilda K.K.Yudaxinning 9 ming so‘zli “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘at”i nashr etildi. 1931 yilda U.Ahmadjonov, B.Ilyazovlarning 10 ming so‘zdan iborat “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”i bosilib chiqdi. 1941 yilda professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borovkovlarning umumiy tahriri ostida 17 ming so‘zni o‘z ichiga olgan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”i chop qilindi. 1959 yilda bu tipdagi lug‘atning ancha mukammali yaratildi. A.K.Borovkov bosh muharrirlik qilgan bu lug‘at 40 ming so‘zdan iborat edi. 1988 yilda O‘zbek entsiklopediyasi bosh redaksiyasi tomonidan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”ning kengaytirilgan, to‘ldirilgan nashri bosib chiqarildi. S.F.Akobirov va G.N.Mixaylovlar tahriri ostida chop etilgan bu lug‘atga 50 mingga yaqin so‘z va iboralar kiritilgan.

O‘zbek lug‘atchiligi tarixida ruscha-o‘zbekcha lug‘atlar ham bir necha bor nashr etilgan. 1927 yilda Ashurali Zohiriyning “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘ati” bosilib chiqdi. 1942 yilda professor T.N.Qori-Niyoziy va professor A.K.Borovkovlar mas‘ul muharrirligida 30 ming so‘zlikka ega bo‘lgan “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” yaratildi. Eng yirik va mukammal “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” 1950-1955 yillar davomida nashr etildi. Besh jildidan iborat bo‘lgan mazkur lug‘at o‘z ichiga 72 ming so‘zni qamrab olgan. 1983-1984 yillarda O‘zbek entsiklopediyasi bosh redaksiyasi tomonidan ikki jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” nashr qilindi. Birinchi jild 34650 so‘zdan, ikkinchi jild 32170 so‘zdan tarkib topgan.

Tarjima lug‘atlarining ko‘pchiligini terminologik lug‘atlar tashkil etadi. Bunga namuna sifatida H.Hasanovning “Ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha geografıya terminlari lug‘ati” (1964), N.Hotamov, B.Sarimsoqovlarning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” (1983), A.A‘zamov, E.Nazirovlarning “Atmosfera fizikasidan ruscha-o‘zbekcha terminlar lug‘ati” (1972), Sh.Bayburova, N.Takanaevlarning “Pedagogikadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologiya lug‘ati” (1963), O.Aminov, J.Do‘stmuhammedov, A.Usmonovlarning “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha iqtisodiy terminlar lug‘ati” (1971), Q.Z.Zokirov, M.M.Nabiev, O‘.Pratov, H.A.Jamolxonovlarning “Ruscha-o‘zbekcha botanika terminlarining izohli lug‘ati” (1963) ni ko‘rsatish mumkin.

Qayd qilingan lug‘atlar tarjima lug‘atlarining maxsus tipiga kiradi. Maxsus tipdagi bunday lug‘atlarga yana M.Sodiqovanning “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at” (1972), A.P.Hojiev, S.L.Kimning “Uzbeksko-russkiy sinonimicheskiy slovar” (1990) lug‘atlari misol bo‘ladi.

Ko‘p tilli lug‘atlar. Bunday lug‘atlarda uch va undan ortiq tillarning so‘zlari tarjima qilib beriladi. Ko‘p tilli lug‘atlar o‘tmishda ko‘p yaratilgan. M.Zamaxshariyning 1128-1143 yillarda yaratgan “Muqaddimat-ul adab” lug‘ati arab-fors-chig‘atoy tillari asosida tuzilgan. Muhammad Ya‘qub Chingiyning “Kelurnoma” nomli lug‘ati turkiy-chig‘atoycha-forscha so‘zlardan tashkil topgan. Ishoqxonto‘ra Ibratning “Sart tili lug‘ati” deb nomlangan lug‘atida o‘zbekcha so‘zlar rus, arab, fors, turk, hind tillariga tarjima qilib berilgan.

Ko‘p tilli lug‘atlar hozirgi paytda ham tuzilyapti. Lekin ularning asosiy qismi terminologik xarakterga egadir. Bunga A.A.Asqarov, H.Zohidovlarning “Lotincha-o‘zbekcha-ruscha normal anotomiya lug‘ati” (1964), M.I.Umarxo‘jaev, Q.N.Nazarovlarning “Nemischa-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at” (1994), D.Rashidova, M.N.Nigmatboevalarning “Nemischa-ruscha-o‘zbekcha ijtimoiy-siyosiy lug‘at”i, N.K.Ahmedov, Yu.A.Kulikovlarning

“Anatomiya dan lotincha-o`zbekcha-ruscha lug`at” (1995), R.S.Sobirov, X.X.Xolmatov, V.Ch.Litvinenko, R.R.Sobirovlarning “Dorivor o`simliklarning lotincha-ruscha-o`zbekcha-arabcha-forscha lug`ati” (1989) ni misol qilib keltirish mumkin.

Xullas, lug`at-til xazinasidir. Tilning butun boyligi lug`atlarda namoyon bo`ladi. Lug`atlar kishilarning madaniy saviyasini oshirishda, boshqa tillarni o`rganishlarida alohida va muhim ahamiyat kasb etadi.

Lug`atlarda so`zlarni joylashtirish tartibi quyidagi uch tamoyilga tayanadi:

tashqi tartib;

ichki tartib;

maono tartibi; (semantik printsip).

1.Tashqi tartib so`zning birinchi xarfiga – shu xarfning alifbodagi o`rniga qarab belgilanadi:

Arpa

Banoras

Gavda

Vazir

2.Ichki tartib so`zning birinchi xarfidan keyingi (ikkinchi, uchinchi va xokazo) xarflariga – shu xarflarning alifbodagi o`rniga qarab belgilanadi. Bu tartibga birinchi xarfi bir xil bo`lgan so`zlar-ni joylashtirishga amal qilinadi:

Arpa

Arra

Asal

Astar

3.Ma'no tartibi omonim yoki ko`p ma`noli so`zlarni joylashtirishda ishlatiladi. Bu tartibga ko`proq qomusiy lug`atlarda amal qilinadi:

Oxangaron – daryo ...

Oxangaron – shahar ...

Chirchiq - daryo ...

Chirchiq – shahar ...

Izoh: Oxangaron va Chirchiq so`zlari dastlab daryo nomi bo`lgan, keyinchalik shu daryolar yoqasida yuzaga kelgan shaharlarni nomiga aylangan. Bu xol daryo nomini oldin, shahar nomini esa keyin qo`yishga asos bo`ladi.

Savol va topshiriqlar.

1. Lug`atshunoslik nimani o`rganadi?
2. Lug`at nima va u qanday turlarga bo`linadi?
3. Lingvistik (til) lug`atlari haqida so`zlab bering.
4. Bir tilli lug`atlarning turlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Umumiy va maxsus lug`atlar qanday tuziladi?
6. Izohli, imlo lug`atlariga tavsif bering.
7. O`zbek tilida nashr etilgan atamalar (terminologik) lug`atlariga misollar keltiring.
8. Ikki tilli tarjima lug`atlari bo`yicha o`zbek tilida qanday lug`atlar nashr qilingan?
9. Lug`atlarda so`zlarni joylashtirish qanday tamoyillarga asoslanadi?

GLOSSARY

Адабий меъёр — Literary norm - Литературная норма
Адабий тил — Literary language - Литературный язык
Аналитик усул - Analytical method — Аналитический способ
Аналитик тиллар — Analytical languages - Аналитические языки
Аналитик - Analytic(al) - Аналитический
Аналитик усул — Analytical method - Аналитический способ
Аналитик шакл — Analytical form - Аналитическая форма
Аниқ - concrete - конкретный
Аниқ келаси замон — Perfect future time - Определенное будущее время
Аниқ от - Specific noun — Конкретное существительное
Аниқ от - concrete noun - конкретное существительное
Аниқлов боғловчилари — Identification unions - Определительные союзы
Аниқ нисбат - The main mortgage, pledge dsystvitelny — Основной залог, действительный залог
Асл кўмакчилар - Own postpositions — Собственные послелоги
Аслий сифатлар - Qualitative adjectives — Качественные прилагательные
Асос - basic - базис, основа
Асос - the basis of word — Основа
Асос маъно - Generating value — Производящее значение
Асосий - based - основанный
Атоқли от - Proper noun - имя собственное
Аффиксал синонимия - Affixal Synonymy — Аффиксальная синонимия
Аффиксал морфема - Morpheme affixal — Аффиксальная морфема
Аффиксал антонимия - Affixal antonymy — Аффиксальная антонимия
Аффиксал омонимия - Affixal homonymy — Аффиксальная омонимия
Аффиксал сўз ясаши - Affixal derivation — Аффиксальное словообразование
Аффиксация - Affixation - Аффиксация
Аффиксинг варианты - Option affix — Вариант аффикса
Аффиксоид - Affixoid - Аффиксоид

Б

Бадиий услуб - Artistic style — Художественный стиль
Бадиий матн - Artistic text - Художественный текст
Бажарувчи шахс - The subject of — Субъект действия
Белгилаш олмошлари - Attributive pronouns — Определительные местоимения
Белгили - Registration — Оформленный
Белгили тушум келишиги - Drawing accusative — Оформленный винительный падеж
Белгили қаратқич келишиги - Designed genitive — Оформленный родительный падеж
Белгисиз - Unformed — Неоформленный
Белгисиз қаратқич келишиги - Unformed genitive — Неоформленный родительный падеж
Белгисиз тушум келишиги - Unformed accusative — Неоформленный винительный падеж
Бириктирув боғловчилари - Connecting unions — Соединительные союзы
Бирикувчанлик - combinability - сочетаемость
Биринчи шахс - First person — Первое лицо
Бирлик (тил бирлиги) unit (a unit of language, language unit) — Единица(единица языка, языковая единица)
Бирлик сон - Singular — Единственное число
Боғлама - chord - связка
Боғлама - Ligament — Связка
Боғлиқ - bound - связанный

Бўлишли - бўлишсизлик категорияси - Category of positivity and negativity — Категория
положительности и отрицательности

В

Воситали келишик - Oblique case — Косвенный падеж

Воситали объект - The object kosvenny — Косвенный объект

Г

Гап - Proposal - Предложение

Гапнинг грамматик (синтактик) тузилиши - Grammatical (syntactic) sentence structure
communication of the sentence— Грамматическая (синтаксическая) структура
предложения.

Грамматик маъно - Grammatical meaning — Грамматическое значение

Грамматик услубият - Grammatical style — Грамматическая стилистика

Грамматик шакл - Grammatical form — Грамматическая форма

Грамматик - grammatical - грамматический

Грамматик категория - Grammatical category - Грамматическая категория

Грамматик категориялар - Grammatical category — Грамматические категории

Грамматик маъно - Grammatical meaning - Грамматическое значение

Грамматик омонимия - Grammatical homonymy — Грамматическая омонимия

Грамматик синонимия - Grammatical synonymy — Грамматическая синонимия

Грамматик сон - Grammatical number — Грамматическое число

Грамматика - grammar - грамматика

Грамматик антонимия - Grammatical antonymy — Грамматическая антонимия

Ё

Ёзма нутқ - Written language — письменная речь

Ёзув - Letter — письмо

Ж

Жамловчи от - the collective noun — собирательное существительное

Жонли тил - A living language — Живой язык

Жуфт сўз - Pairs word — Парное слово

Жумла - Sentence - Высказывание

Жўналиш келишиги - Napravitelny case — Направительный падеж

И

Ижтимоий диалект - Social dialect — Социальный диалект

Изоҳли луғат - Dictionary — Толковый словарь

Имло - Orthography, spelling — Орфография, правописание

Имло луғати - Thespellingdictionary — Орфографический словарь

Инглиз тили - English - английский язык

Иккинчи шахс - Thesecondperson — Второе лицо

К

Калька - Vellum — Калька

Калькалаш - Tracing — Калькирование

Каммахсул аффикслар - Unproductive affixes — Малопродуктивные аффиксы

Қиёсий - comparative - сравнительный

Қарама - қарши - contrast - противопоставление

Келишик категорияси - Category of case — Категория падежа

Кўплик сон (кўплик) - Plural — Множественное число

Кўрсаткич - Index — Показатель

Кўрсаткич, восита - operator - оператор
Кўшимча, аффикс - Affix - Аффикс.

Л

Лаҳжа - Adverb — Наречие

М

Мавҳум от - Abstract noun — Отвлеченное существительное

Мавҳум - Abstract - Абстрактный|

Мавҳум от - abstract noun - абстрактное существительное

Мазмун - content - содержание,

Матн - Text — Текст

Модал маъно - modal meaning — модальное значение

Мустақил сўзлар - Significant words — Знаменательные слова

Н

Нарса оти - inanimatenoun - вещественное существительное

Нисбат категорияси - Category of collateral — Категория залога

Ноль кўрсаткичи аффикс - Zero affix — Нулевой аффикс

О

Объект - object - объект

Объектив (муносабат) - objective - относящийся к дополнению

Объектли муносабат - Object relations — Объектное отношение

Объектли феъл - Object verb, transitive verb — Объектный глагол, переходный глагол

Олд кўшимча - Prefix — Префикс

Отнинг функционал шакллари - Funktsionalnys name form — функциональные формы имени

С

Саналадиган от - count(able) noun - исчисляемое существительное

Саналадиган от - count(able) noun - исчисляемое существительное

Саналмайдиган от - non - countnoun неисчисляемое существительное

Субъект - Subject - Субъект

Сўз ясаиш модели - Derivational model — Словообразовательная модель

Сўз ясаиши - Word formation — Словообразование

Сўзлашув - colloquial - разговорный

Сўзнинг морфологик тузилиши - Morphological structure of words —

Морфологическая структура слова Сўзнинг номлаш вазифаси - Nominative function words — Номинативная функция слова

Т

Тараққиёт - development - развитие

Тарихий - historic(al) - исторический

Тарихий грамматика - Historical Grammar — Историческая грамматика

Тарихий сўз - historicism - историзм

Таҳлил - Analysis — Анализ

Таҳлил қилмоқ - Analyze - Разлагать, анализировать

Ташқи омиллар - External factors — Внешние факторы

Тежамлилик - ecomomy - экономия

Тил - Language — Язык

Тиллар оиласи - A family of languages — Семья языков

Турланиш - conjugation - спряжение

Тушум келишиги - Accusative — Винительный падеж

Тўда от - collectivenoun - собирательное существительное

У

Учинчи шахс - Third person — Третье лицо

Хослик шакли - Form of affiliation — Форма принадлежности

Ч

Чет сўзлар - Foreign words — Иностранные слова

Чиқиш келишиги - The source case — Исходный падеж

Ш

Шакл ясалиши - Shaping — Формообразование

Шаклдошлик - Ambiguity - 1 неоднозначность; неясность; 2 омонимия

Шахс оти - agentnoun - имя, обозначающее деятеля, одушевлённое

Шахссиз - infinite - неличный

А

Aferezis – Афerezис - Aphaeresis - ham xuddi eliziya kabi sandhi holatda hosil bo‘lgan ikkita qator unlidan birining reduktsiyalaishidir. Sandhi holatda bir erda keluvchi ikkita har xil unlidan birinchisining reduktsiyalanib, o‘z artikulyatsiyasini yo‘qotishi eliziya bo‘lsa, xuddi shunday sharoitda ikkinchi unlining reduktsiyalanishi aferezis sanaladi. Masalan, *narsa<na ersa, nechun<ne uchun* va b.

Allafon - Аллофон - Allophone (yunoncha, allos – boshqa, phone – tovush) – fonemaning reallashgani, aniq fonetik qurshov bilan asoslangan fonemaning varianti.

Allamorfizm - Алломорф - Allomorphy – ma‘lum sathni tashkil qiluvchi til birliklarining turli tiplari.

Amorf tillar - Аморфные - Amorphous languages (yunon. amorphous – -siz, be-, + morphe - forma – «shaklsiz, beshakl», «to‘silgan», «o‘zakli», «o‘zagito‘silgan») – so‘z o‘zgarishi mavjud bo‘lmagan tillar, grammatil affikslar yoq (kelishik, son, shaxs, zamon va h.z.) ikki so‘zning bir-biri bilan birikuvi yoki yordamchi so‘zlar orqali birikadi.

Assimilyatsiya - Ассимиляция - Assimilation – turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilida keng tarqalgan hodisa bo‘lib, nutqning moddiy zanjirida, ya‘ni tovushlar ketma-ketligida ma‘lum bir belgiga ko‘ra ikkita noo‘xshash undoshning so‘zlovchining talaffuz qulayligiga intilishi tufayli o‘xshash undoshga aylantirilishidir. Ko‘rinadiki, muayyan leksema tarkibida ma‘lum belgi asosida zidlanuvchi ikki undosh talaffuz noqulayligini bartaraf qilish harakati tufayli zidlanish belgisini yo‘qotadi, bir xil undoshlarga aylanadi. Natijada leksemaning og‘zaki so‘zlashuv varianti – uslubiy varianti maydonga keladi. Masalan, *tarnov- tannov, shirmoy non- shirmonnon, badtar- battar* kabi.

Аракора - Апóкoпa - Аросоре - fors-tojik hamda rus tili orqali o‘tgan bir qator olinmalarning oxirgi bo‘g‘inida ikki va undan ortiq undoshlar qator kelishlari mumkin. Lekin bir bo‘g‘inda kelgan bu undoshlar og‘zaki nutqda turkiy tillarning fonetik qonuniyatlariga moslashtiriladi va bir undosh tushiRib qoldiriladi. Masalan, *go‘isht-go‘sh, g‘isht-g‘ish, baRg-bak, vaqt-vaq* va boshq.)

D

Differensiatsiya prinsipi - Дифференцирующий – Differentiates - Bu prinsip asosida tuzilgan imlo qoidalari ko‘ra shakli bir xil bo‘lgan (omonim) yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan (paronim) so‘zlar yozuvda diakritik belgilarni ishlatish orqali farqlanadi.

Differentsiatsiya – Дифференциация – Differentiation - (frans. differentiation, lotincha differentia – har xillik, farq, tafovut) – bu yaxlitni turli qismlarga, shakllarga va bosqichlarga ajratish, bo‘lish. Pedagogikada Ta‘lim differentsiatsiyasi – bu Ta‘lim faoliyatining, o‘quvchilarning moyilliklari, qiziqishlari va qobiliyatlarini xisobga oluvchi, tashkil etish shaklidir.

Diskussiya (lotincha discussion dan – o‘rganish, tadqiqot) - **Дискуссия; Discussion**– 1) qandaydir bir masalani suhbatda, majlisda, bosmada va hokazoda muhokama, munozara qilish; 2) masalani umumiy echimini ishlab chiqishga yordam beruvchi qo‘shma faoliyatni tashkil etish usuli; 3) o‘quvchilarni birgalikdagi haqiqatni izlashga qo‘shish hisobiga Ta‘lim jarayoni samarasini oshiruvchi Ta‘lim uslubi.

E

Eliziya - Элизия - Elision - sandhi holatda qator kelgan har xil turdagi ikki unlidan birining

tushib qolishi hodisasidir. Sinerezis hodisasida qator kelgan unlilar o'zaro birikib, bir unliga aylansa, eliziya hodisalarida bu unlilardan biri tushib qoladi². Ana shu xususiyatlari bilan bu hodisalar bir-biridan farq qiladi.

Emik birliklar - Единица языка - **Emic unit** - ema bilan tugagan atamalar (fonema, morfema, leksema kabi) orqali ifodalangan birliklarni o'z ichiga olsa, **etik birliklar** variant yoki allo- bilan boshlangan (allofon, allomorf, alloleks) atamalar orqali ifodalangan birliklarni o'z ichiga oladi.

F

Fonetik prinsip (tamoyil) – Фонетический принцип - **Phonetic spelling principle** - So'zlarni asli qanday bo'lishidan qat'i nazar talaffuziga ko'ra yozish tamoyilidir.

Fonetik-fonologik sath - Фонетико-фонологический уровень - **Phonetic-phonological level** - til ierarxiyasining tovush tizimidan iborat quyi pog'onasi (quyi yarusi): nutq tovushlari, bo'g'in, urg'u, ohang va b.lar.

Funksional ko'chirish - Функциональный перенос - **Functionally transfer** – biror predmetning nomi boshqasiga ular bajargan vazifasidagi o'xshashlik asosida ko'chirilishi. (lot. funktio - 'faoliyat', 'vazifa'). Funksional ko'chirish ham o'xshashlik asosida voqe bo'la-di. Bu jihatdan u metafora yo'li bilan ko'chirishga juda yaqin.

G

Grafika – Графика – **Graphics** - Yozuv tarixi va yozuv birliklari: harf, grafema, alfavit kabilarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir.

Grammatik ma'no -Грамматическое значение - **Grammatical meaning** - sistemasida obyektiv borliqdagi predmetlar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi bilimimiz ong orqali aks etadi. Grammatik ma'noni uch guruhga bo'lish mumkin: 1) nosintaktik (referensial); 2) sintaktik (relyasion); 3) subyektiv. Birinchi ma'noni turkumlovchi, ikkinchi ma'noni toifaviy (kategorial), uchinchi ma'noni esa notoifaviy (nokategorial) ma'nolar deb ham tasniflash mumkin.

Grammatik shakl -Грамматическая форма - **Grammatical forms** - muayyan grammatik ma'noning tashqi ifodalanish tomoni - moddiy tomonidir. Grammatik shakl bilan grammatik ma'no falsafadagi shakl va mazmun dialektikasini o'zida namoyon qiladi. Shakl va mazmun bir yaxlitlikning ikki tomoni - biri tashqi, ikkinchisi esa ichki tomoni sanaladi. Shuning uchun ular bir-birini taqozo qiladi. Birisiz ikkinchisining bo'lishi mumkin emas.

I

Innovatsiya– Инновация -**Innovation** – Yangilik, yangi g'oya kiritish.

K

Kartoteka – Картотека- **File** – Kartochkalarining – informatsiya tarqatuvchi, birlashtirilgan, sistemalashtirilgan va aniq bir tartibda joylashtirilgan, masalan, alfavit, mavzular, sanalar bo'yicha, aniq bir sonining ja'mi.

Konsonantizm - [Консонантизм](#) - [Consonants](#) - undosh fonemalar tizimi.

L

Leksema – Лексема - **Lexeme** – lo'g'aviy ma'noga ega bo'lgan, grammatik shakllardan holi leksik birlik. Leksema ikki planli til birligidir. U shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topadi.

Leksik sath - Лексический уровень - **Semantics level** - til ierarxiyasining lug'at boyligidan iborat yuqori pog'onasi: so'zlar, iboralar, ularning turli qatlamlari.

Leksema mazmunining strukturasi - Семантическая структура значения лексемы - **Semantic structure of the token value** - deyilganda, leksema tarkibidagi bitta semema, leksik ma'no yoki leksik semantik variantlarning tarkibi, qanday semalardan iborat ekanligi va undagi semalararo munosabatlar tushuniladi: LMS=Sema+Sema+Sema.

Leksema mazmunining strukturasi - Семантическая структура значения лексемы - **Semantic structure of the token value** - deyilganda, leksema tarkibidagi bitta semema, leksik ma'no yoki leksik semantik variantlarning tarkibi, qanday semalardan iborat ekanligi va undagi semalararo munosabatlar tushuniladi: LMS=Sema+Sema+Sema.

Leksemaning mazmun jihati - Семантический аспект лексемы -- Semantic aspect of tokens - tilshunoslikda ma'no, mazmun, ishkitomon, ifodalanmish, signifikat, funktsiya, vazifa, qiymat, semema atamallari ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida leksemaning mazmun tomoni, asosan, semema, leksikma'no atamallari bilan nomlanadi.

Leksemaning mazmun jihati - Семантический аспект лексемы - Semantic aspect of tokens - tilshunoslikda ma'no, mazmun, ishkitomon, ifodalanmish, signifikat, funktsiya, vazifa, qiymat, semema atamallari ishlatiladi. O'zbek tilshunosligida leksemaning mazmun tomoni, asosan, semema, leksikma'no atamallari bilan nomlanadi.

Leksemaning semantik strukturasi - Семантическая структура лексемы - Semantic structure of the lexeme - deganda, uning tashkil etuvshi leksik ma'nolar (sememalar) yoki leksik semantik variantlar va ma'nolararo munosabatlar nazarda tutiladi: LSS=Semema+Semema+Semema.

Leksemaning semantik strukturasi - Семантическая структура лексемы - Semantic structure of the lexeme - deganda, uning tashkil etuvshi leksik ma'nolar (sememalar) yoki leksik semantik variantlar va ma'nolararo munosabatlar nazarda tutiladi: LSS=Semema+Semema+Semema.

M

Metafora – Метафора - Metaphor – biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshashligi asosida ko'chirish.

Metonimiya – Метонимия – Metonimiya - bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o'xshashlik asosida emas, balki o'zaro bog'liqlik asosida ko'chirilishidir.

Morfologik prinsip – Морфологический принцип - The morphological principle - So'zlarni qanday talaffuz etilishidan qat'i nazar asliga ko'ra, qoidaga binoan yozish tamoyilidir.

Morfologik sath - Morphology level - Sintaktik sath- til ierarxiasining morfologik va sintaktik birliklardan iborat eng yuqori pog'onasi: so'z turkumlari, grammatik ma'no va grammatik shakllar, so'z birikmalari va gap, ularning turlari va konstruksiya modellari.

Metateza -Метатэза – Metathesis - Leksema nomemasining variantlari tilda amal qiladigan metateza hodisasi tufayli ham ko'payadi. Metateza har qanday tilning ham diaxron, ham sinxron holati uchun mansubdir. Bunday holatdan o'zbek tili ham mustasno emas.

Metateza - Метатэза — Metathesis - Leksema nomemasining variantlari tilda amal qiladigan metateza hodisasi tufayli ham ko'payadi. Metateza har qanday tilning ham diaxron, ham sinxron holati uchun mansubdir. O'zbek tilida metateza shu tilning ikki davr oralig'idagi leksema nomemasining o'zgaruviga olib kelishi mumkin. Masalan, o'rganmoq- o'rganmoq, yog'mir-yomg'ir. Shu bilan birgalikda, metatezaga uchramagan variant ham hozirgi kunda ayrim o'zbek dialektlarida saqlanayotgan bo'lishi mumkin. Bu esa tarixiy va dialektal variantlarning farqlanishiga olib keladi.

Monosemantik so'zlar - Моносематические слова - Monosematische words—faqat bitta ma'noga ega bo'lgan so'zlar.

Monosemantik so'zlar- Моносематические слова - Monosematische words - faqat bitta ma'noga ega bo'lgan so'zlar.

N

Nomema – Номема - Nomema - leksemaning shakl jihati bo'lib, uning fonetik belgilaridan iborat. U tilshunoslikda substansiya, shakl, moddiy tomon, tashqitomon, belgi, fonetikso'z, signal, fonetikqobig', nomema atamallari bilan nomlanadi.

Nominativ ma'no - Номинативное значение - Matter nominativnoe – biror narsa, belgi yoki harakatning nomi bo'lib xizmat qiluvchi ma'no. Nominativ ma'no voqelik bilan bevosita bog'lanadi.

Nutq - Речь — Speech - Fikr bayon qilish vositasi bo'lib, og'zaki va yozma shakllarga ega.

O'

O'quv dasturi - Учебная программа - Teaching program- aniq fanning maqsadidan, o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmidan kelib chiqib tuzilgan va mavjud jamiyatning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettirgan davlat hujjati.

O'quv reja - Учебный план - Teaching plan - mutaxassis shaxsi bilishi va o'zlashtirishi zarur deb belgilangan o'quv fanlari, ularni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjati.

O

Orfografiya - Орфография - Spelling - so'zi yunon (grek) tilidan olingan bo'lib, "to'g'ri yozish" degan ma'noni anglatadi.

Ortiqchalik prinsipi - Принцип избыточности - Principle of redundancy - asosida voqe bo'lgan hosila ma'nolar nomi mavjud narsalarni qaytadan nomlaydi.

P

Proteza - Протéза – Prosthesis -fonetik moslashtirish. So'z boshida tovushlar mosligi natijasida leksema variantlarining ortishi muammosi dastlab Mahmud qoshg'ariy tomonidan bayon qilingan edi. Xususan, u qipchoq, o'g'uz tillarini hoqonicha turkcha tilga qiyoslar ekan, hoqonicha turkcha leksemalar boshidagi [y] undoshi qipchoq tillarida doimo [j] ga, o'g'uz tillarida esa nolga aylanishini bayon qiladi. Masalan, turkcha jinji, qipchoqcha jinji, o'g'uzcha inji.

Punktogramma - Пунктограмма — Пунктограммa — Muayyan yozuv tizimining uzviy qismi bo'lib, yozma nutqning ayrim yozuv belgilari (masalan, rahamlar, harflar, diakritik va transkripsion belgilar kabi) bilan ifodalash mumkin bo'lmagan tomonlarini aniq belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Punktuatsiya - Пунктуация— Punktuatsiya - so'zi lotincha "punctum", yani "nuqta", "o'rin, joy" tushunchalarini anglatadi. "Punktuatsiya" tilshunoslikning tinish belgilari haqidagi bo'limi bo'lib, unda tinish belgilari (punktogramma)ning qo'llanish qoidalarini o'rganiladi. Punktuatsiya tilshunoslikda nutqoqimidagi intonatsion-prosodik to'xtamlarni, yozuvda ifodalanadigan shartli belgilar yig'indisini (**tinish belgilarini**) anglatadi.

Polisemiya – Полисемия - Polysemy - tildagi ko'p ma'nolilik hodisasi.

Polisemiya– Полисемия – Polysemy — tildagi ko'p ma'nolilik hodisasi.

Polisemantik so'zlar— Полисемантические слова – polysemantic words- birdan ortiq ma'noni anglatuvchi so'zlar polisemantik so'zlar atamasi bilan yuritiladi.

Polisemantik so'zlar- Полисемантические слова - Polysemantic words - birdan ortiq ma'noni anglatuvchi so'zlar polisemantik so'zlar atamasi bilan yuritiladi.

S

Sinekdoxa – Синекдоха – Synecdoche - bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida ko'chirilishi.

Sistema – Систéма - The system - bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o'zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik.

Sistema -Система – The system - Bir-birini taqozo etuvchi ikki va undan ortiq unsurlarning o'zaro shartlangan munosabatidan tashkil topgan butunlik.

Sistem tahlil - Системный анализ - Systematic analysis – murakkab muammolar (siyosiy, harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy va texnik sifatga ega bo'lgan) bo'yicha yechimlarni tayyorlash va asoslash uchun qo'llaniladigan metodologik vositalarning jamidir. Sistemali yondashuvga tayanadi. Asosiy muolaja – real vaziyat o'zaro aloqasini aks ettiruvchi umumlashtirilgan modelini qurish. "Sistemali tahlil" termini alohida sistemali yondashishning sinonimi sifatida ishlatiladi.

Sistemali yondashish- Системное соотношение - System correlation -obyektlarga sistemalar sifatida harash usuli. Obyekt yaxlitligini ochib beradi va undagi aloqalarni ko'p turliligini aniqlab beradi. Sistemali yondashuv sistemaning funksiyalashish maqsadlarini va uning boshqa sistemalar bilan bo'lgan aloqasini aniqlaydi.

Substansiya– Субста́нция - Substance (lot. "mohiyat") atamasi falsafada antik davrlardan buyon ishlatiladi. Lekin falsafa tarixida bu atama xilma-xil tushunchalarni ifodalash uchun qo'llanildi. Antik davr filosoflari substansiya atamasi ostida olamdagi barcha narsa va hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsani tushunadilar.

Semasiologiya – Семасиология - Semasiology - tilshunoslikning ma'no haqidagi sohasi.

Semasiologiyaning predmetii -Предмет семасиологии - Semasiology subject – lisoniy ma`no, ya`ni til birliklari anglatayotgan ma`no uning o`rganish.

Semasiologiyaning vazifasi - Функция семасиологии - Semasiology function - Tilning turli sathlaridagi birliklarning ma`nosini tadqiq etish.

T

Tadqiqot– Исследование – Investigation – yangi bilimlarni ishlab chiqishni maqsad qilgan, bilish faoliyati turlaridan biri.

Tarixiy-an'anaviy prinsip – Традиционный - Traditional - So'zlarni yoki so'z shakllarini qadimdan odat bo'lib qolgan shaklda yoki an'anaga mos shaklda yozish qoidasidir.

Til birliklari - Языковые средства - Language units -ema bilan tugaydigan (fonema, morfema, leksema kabi) atamalar orqali ifodalanadi.

Tinish belgilari- Знаки препинания — Punctuation elements - Yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqiy bayon qilishda, uni ixchamlashda, gap qismlarining o'zaro logik-grammatik munosabatlarini ko'rsatishda muhim grafik vosita sifatida ishlatiladi.

Tejamkorlik prinsipi - Принцип экономии - The principle of economy - asosida voqe bo'lgan hosila ma'nolar konnotativlik, emotsional-ekspressivlik, modallik jihatidan neytral bo'lib, ular faqat nomlash vazifasini bajaradi.

U

Unlilar reduktsiyasi - Редукция - Reduction- bir bo'g'inli leksemalarda hamda ikki bo'g'inli leksemalarning birinchi bo'g'inidagi sonor undoshlar oldida kelgan tor unli sonor undosh ta'sirida reduktsiyaga uchraydi. Masalan, b(i)lan, b(i)roq, s(i)ra, b(i)r kabi.

V

Vokalizm - Вокализм - Vowel -unli fonemalar tizimi.

Y

Yozuv – Letter - Письмо - muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi.

O'zbek tilida alektlarida saqlanayotgan bo'lishi mumkin. Bu esa tarixiy va dialektal variantlarnimetateza shu tilning ikki davr oralig'idagi leksema nomemasining o'zgaruviga olib kelishi mumkin. Masalan, o'granmoq- o'rganmoq, yog'mir-yomg'ir. Shu bilan birgalikda, metatezaga uchramagan variant ham hozirgi kunda ayrim o'zbek ding farqlanishiga olib keladi.

